

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

MUSTAQIL TA‘LIM

SAMARQAND – 2017

Mustaqil ta'lim. Uslubiy qo'llanma. – Samarqand : SamDU, 2017

Ushbu uslubiy qo'llanma (bakalavriyat va magistrantlarning) mustaqil ta'lim olishini tashkil etishga bag'ishlangan bo'lib, unda oliy ta'lim muassasasi ko'p qirrali va murakkab o'quv tarbiya jarayoni ma'ruza uni tinglash va yozib olish; kitob va manbalar bilan ishlash; o'qilganlarni matnlashtirish (reja, tezis va annotatsiya tuzish, sitata, ko'chirma olish); seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorlanish; zachot va imtihonlarga tayyorlanish; yozma kurs va malakaviy bitiruv ishlarini rasmiylashtirish; aqliy mehnatni tashkil etish va rejalashtirish kabi asosiy bo'g'inlari bo'yicha uslubiy maslahatlar muhokama qilingan.

Mazkur qo'llanma oliy ta'lim muassasalari bakalavriyat va magistrantlari barobarida malaka oshirish institutlari tinglovchilari, ilmiy tadqiqotchilar uchun mo'ljallangan.

Tuzuvchilar: prof. Shodiev N. dots. Maxmatmurodov Sh.

Taqrizchilar: M. Behbudiy nomidagi Samarqand VPXQTMOI "Amaliy fanlar" kafedrasini mudiri, ped.fan.nom, dots. B. Doniev
SamDU Pedagogika kafedrasini dotsenti, ped.fan.nom., M.Fayziev

Ma'sul muharrir: Shodiev F.T., fil. fan.nom., dotsent

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining oliy ta'limga doir me'yoriy hujjatlarda mustaqil ta'lim talabalarining mustaqil ishlari o'quv mashg'ulotlarining turidan biri, ta'lim olishning muhim shakli usuli sifatida ko'rsatilgan.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablari asosida mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi malakali kadrlarni tayyorlashni amalga oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2001–yil 16 – avgustda tasdiqlagan Oliy ta'limning davlat ta'lim standartida oliy ta'lim dasturi, mazmuniga qo'yiladigan, umumiy talablar qatorida bakalavriat ta'lim dasturini o'zlashtirishida talabalarining o'quv fanlariga oid bir qancha masalalar va muamolar bo'yicha mustaqil ta'lim olishi nazarda tutilgan.

Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchilarining tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladigan davlat standarti umumiy malaka talablaridan biri “Yangi bilimlarni mustaqil egallay bilish, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish” (18,) hisoblanadi.

Oliy ta'limni isloh qilishga doir me'yoriy davlat hujjatlarida keltirilgan ushbu talablar, fikrlar oliy o'quv yurtida mustaqil ta'lim olishga katta e'tibor berish talabalarni mustaqil ishlash metodikasi bilan qurollantirish zarurligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks choratadbirlar to'g'risida”gi qarorida “...Farzandlarimizda bolalikdan boshlab kitob, jumladan, elektron kitob o'qish ko'nikmasini shakillantirish, jamiyatimizda mutolaa madaniyatini yuksaltirish bilan bog'liq muhim masalalarni hal etish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda...o'quv – uslubiy, ilmiy nazariy, ilmiy ommabop ko'rgazmali adabiyotlarni chop etish, tarqatish tizimini takomillashtirish...;

Axborot kutubxona faoliyatini kuchaytirish, ta'lim muassasalari axborot – resurs markazlarining kutubxona fondlari, kutubxonalarni... o'quv- uslubiy, texnik adabiyotlar bilan boyitish.

Mamlakatimizda internet orqali zarur adabiyotlarni topish va harid qilish imkonini beradigan [eReader] elektron o'quv qo'llanmalarni ishlab chiqarishni tashkil etish ularning axborot bazasiga... oliy o'quv yurtlari uchun darsliklar, o'quv qo'llanmalari, o'quv–uslubiy, ilmiy nazariy manbalarni joylashtirish ” lozimligiga alohida e'tibor qaratilgan.



O‘z-o‘zidan ravshanki, mustaqil ta’limni kitob, jumladan elektron kitob o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirmasdan jamiyatimizda mutolaa madaniyatini yuksaltirmasdan turib tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Mustaqil ta’lim belgilangan o‘quv topshiriqlarini talabalar tomonidan mustaqil va ijodiy (yoki professor-o‘qituvchilarning ko‘rsatmasiga muvofiq) bajarish maqsadiga yo‘naltirilgan o‘quv faoliyatidir. Mustaqil ta’lim – bu insoning o‘zi tanlagan adabiyotlar va vositalar yordamida avlodlar tajribasini, fan va texnika yutuqlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan shaxsiy harakatlar jarayoni. Bunda insonning ichki dunyosi, xis-tuyg‘ulari, mustaqil fikrlash qobiliyati muhim rol o‘ynaydi. Mustaqil ta’lim negizini ta’lim oluvchining mustaqil ishlari tashkil etadi. Mustaqil ishlar o‘quv-biluv faoliyatining bir turi, o‘quv faoliyatining tashkiliy shakl –usuli, bilim o‘zlashtirish yo‘li, vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Oliy ta’lim muassasasi (O T M)talabalarining vazifasi oliy maktabda tahsil olish davrida o‘quv –biluv ishini umum madaniyatini oshirish bilan qo‘shib olib borish barobarida fanni egallash, maxsus ilmiy tekshirish ishlarini mustaqil ravishda tahlil (muhokama) qilishni o‘rganishdan iboratdir.

Mustaqil ish (ta’lim) oliy maktabda talabalar mashg‘ulotlarining asosiy metodi hisoblanib, u o‘quv-tarbiya jarayonining barcha bo‘g‘inlariga, yani: darslik va adabiy manbalar bo‘yicha dastur materiallarini o‘rganish; laboratoriya ishlarini bajarish seminar va amaliy mashg‘ulotlariga tayorlanish ishlab chiqarish va pedagogik amalyotlarni o‘tkazish; kurs va malakaviy bitiruv ishlarini yozish; kurs va yakuniy davlat attestatsiya imtihonlariga tayyorgarlik ko‘rishga singdirilgan.

OLIIY TA'LIM MUASSASIDA MUSTAQIL TA'LIM



Biroq, oliy maktabga kirgan maktab o'quvchilari, odatda yetarli darajada mustaqil ishlash ko'nikmalariga ega emas, oliy ta'limda esa o'quv jarayonini tashkil etish yoki maktabdagi o'qitishdan keskin farq qiladi.

O'rta maktabda o'quv dasturlarining barcha mazmuni darsda o'qituvchi – pedagogning bevosita rahbarligida o'rganiladi, oliy ta'limda esa mustaqil ishning ulushi keskin oshadi. O'qituvchilar har bir predmet bo'yicha ma'ruzada asosiy materialni yoritadi, bu talabalardan katta mustaqil ishni talab etadi. O'rta maktabda har bir darsda o'quvchilarni predmet bo'yicha tizimli, rejali ishlashga rag'batlantiruvchi aniq topshiriq beriladi; oliy maktabda esa bu yo'q. Talabaning o'zi predmet bo'yicha asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni o'rganish tartibi va muddatlarini aniqlashi lozim bo'ladi.

O'rta maktabda har bir darsda o'quvchilarning ishlashi muntazam ravishda o'qituvchi tomonidan nazorat qilinishi muhim rol o'ynaydi. Oliy ta'limda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan joriy nazorat o'zini oqlagani yo'q. O'rta va oliy maktab o'quv jarayonida mavjud bo'lgan ana shunday farqlar talabalarga mustaqil ishlashni egallashni, talabalar va professor-o'qituvchilar jamoalarini bu sohadagi keng imkoniyatlaridan foydalanishi zarurligini yana bir bor ta'kidlaydi.

Jamoada ishlab, turli nazariy masalalar bo'yicha fikr almashib, bahs – munozaralarda qatnashib OTM talaba-yoshlari hamkorligidagi ishda qiyinchiliklarni yengadi va shu bilan fanni egalashning murakkab yo'llarini yengillashtiradi. Biroq, talabalar o'z ishida professor-o'qituvchilar va talabalar jamoalari tomonidan doimiy ravishda yordam olsalarda, bu rahbarlik o'rta maktabga nisbatan umumiy harakterga ega va shu boisdan ham har bir talabadan katta tashkilotchilik va o'quv materiallari ustidan muntazam ishlashni puxta o'ylangan rejasini talab etadi.

Mustaqil ishda tizimlilikning yo'qligi va mehnatning talab darajasida tashkil etilmaganligi ko'p hollarda umumiy yuklamaning katta qismi semestr oxirida sessiyalar davriga to'g'ri keladi, qolgan barcha o'quv vaqti oqilona ishlatilmaydi.

Yuqorida bayon qilinganlar OTMda ta'lim olishni boshlaganlarga aqliy mehnatni tashkil etish va o'quv mashg'ulotlarini samarali bo'lishi uchun mustaqil ishni tashkil etish metodikasi bo'yicha yordam berish zarurligini ta'kidlaydi.

Muhim tushunchalarni fahmlash
uchun ularni uch marta takrorlash
joizdir. (Imom al-Buxoriy)

MUSTAQIL TA'LIM OLISH TEXNOLOGIYASI.

Ma'ruzani tinglash

Oliy ta'lim muassasasi ta'limi jarayonida ma'ruza o'quv –bilish va tarbiya bo'yicha katta ahamiyatga ega. Ma'ruzada ilmiy, material qat'iy tizimda va ketma-ket bayon qilinadi. Ma'ruzaning bosma vositaga nisbatan ahamiyatligi (ustunligi) shundaki, unda hammaga ma'lum bo'lgan ilmiy yutuqlar bilan bir qatorda hali matbuotda keng e'lon qilinmagan eng so'ngi tadqiqotlar va ixtirolar natijalari bayon qilinadi. Bundan tashqari ushbu materiallarni ma'ruzachi (lektor) jonli so'zi (muloqoti) orqali berilishi talabaga chuqur va samimiy ta'sir qilib nafaqat aqliy faoliyat, balki chuqur intellektual sezgilarni uyg'otadi. Ma'ruzada talaba ko'pchilik olimlarning jiddiy izlanishlari, ko'p yillik tadqiqotlari bo'lgan ilmiy muhitdan qimmatli materiallarni oladi. Ma'ruza talaba ongini rivojlantirishga katta ta'sir qiladi. Fikr (tafakkurning izchilligi mantiqiyli), faktlar va isbotlarning o'zaro nisbatan chuqur tahlil va umumlashtirish, xulosalarni aniq qiyoslash talaba ongini tarbiyalaydi va nutq madaniyatini oshiradi.

Ma'ruzadan maksimal foydalanish uchun talaba unga tinglash uchun oldindan tayyorlanishi lozim. Unga tayyorlanish o'tgan ma'ruza yozuvlari bilan tanishishdan boshlanadi. Tinglangan ma'ruza materiallarini xotirada tiklash talabani mavzu mazmunini idrok etishga tayyorlaydi. Mavzuning keyingi savollarini qaysi yo'nalishda bayon qilish, ularning mazmuni va hajmini tahlil qilish uchun fanning dasturi bilan tanishish maqsadga muvofiqdir.

Ma'ruzani tinglash maksimal faollikda bo'lishi lozim. Ma'ruza materialini yuzaki tinglash va uni tushunmasdan yodlab olish emas, balki uni ongli ravishda o'zlashtirib olishga zo'r berish kerak.

Ma'ruzani ongli o'zlashtirishning muhim sharti bugun diqqat bilan fikrlash hisoblanadi. Ma'ruzada bayon qilinganlar tushunilishi, anglanishi shart. Tushunilmagan qoidalar va tariflarni shu yerda ma'ruzachidan bilib olish kerak yoki ularga javoblarni kerakli adabiyotlardan topish kerak.

Ma'ruzani tinglash jarayonida talabada unga nisbatan o'zining munosabati bo'lishi kerak. Ya'ni har kishiga nima tushunarli, ravshan va nima tushunarli emas, nima judayam muhim yoki qiziqarli, ma'ruzaning qaysi materiallari aniq, qanday shubhalar vujudga kelgani, nima haqida qo'shimcha o'qish kerakligini aniq bilishi kerak.

Ma'ruzani yozib olish

Ma'ruzani sinchiklab diqqat bilan yozib borish zarur. Yozuv har bir talabaga eng asosiysiga diqqatni jamlashga va ma'ruza jarayonini o'zida eshitganlarini o'ylab ko'rishga va tushinib olishga, o'qituvchining materialni bayon qilish rejasi va mantig'ini anglab olishga yordam beradi. Shuning uchun ham talabalar o'rtasida keng tarqalgan amaliyot ma'ruzalarini navbat bilan yozish yoki

o'rtoqlarining tayyor yozuvlarini ko'chirib olish amaliyot predmetini chuqur egallashga hamma vaqt salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Biroq, ma'ruzani shunchaki yozish ham talabaga foyda keltiravermaydi; so'zma-so'z, bir-biriga bog'lanmagan yoki tizimsiz yozuvlar unchalik ahamiyatga ega emas.

Amaliyotning ko'rsatishicha, ko'pchilik talabalar ma'ruza yozib olish texnikasini bilmaydilar. Ularning biri ma'ruzani so'zma -so'z yozib olishga harakat qiladi, biroq ma'ruzachi so'zi sur'atiga ulgura olmagan uchun uning aytganlarini yozolmaydi, bo'sh joy qoldiradi, bunda ko'p hollarda ma'ruzaning eng muhimlarini yozolmaydi. Natijada ma'ruza yozuvi mantiqsiz, ma'nosiz, to'liqmas, amalda qo'llash uchun yaroqsiz bo'lib qoladi. Boshqalar esa teskari ma'ruzani qisqa yozib olishga harakat qiladilar, biroq bunda ma'ruzachi bayon qilgan asosiy qoidalar, fikr-mulohazalarni tashlab ketadilar, sarlavha yoki rejalarining birgina o'zi bilan chegaralanib qoladilar.

Ma'ruza yozishni u shakli ham bu shakli ham o'z maqsadiga erisha olmaydi, uni yozish ko'nikmasi esa amaliyotda shakllanadi. Har bir talaba uni o'rganib olishi shart.

Eng avvalo talaba o'z diqqatini ma'ruzachi bayon qilayotgan alohida-alohida qoidalarga taqsimlashga hamda eng asosiy muhimlarini tez ajrata olishga odatlanishi zarur. Ma'ruzachi bayon qilganlarining barchasini yozish shart emas, balki tanlangan, asosiy va eng muhimini yozib olish lozim, yozuv jarayonida esa qiyin bayon qilnadiganni diqqat bilan kuzatib borishlari lozim.

Ma'ruzachi diqqatini ovozining balandlik jihatiga, ohangiga ham qaratishi zarur. Odatda ma'ruzachi asosiy muhim fikrlarini ajratadi va balandroq ovozda gapiradi. Tinglanayotgan materialni talabaga aniq tasavvur qildirish uchun ma'ruzachi tomonidan keltirilgan misollar, manbalar, jadvallar, sxemalar katta ahamiyat kasb etadi. Ularni to'liq yozib olishga zarurat yo'q, biroq ularni (Makkajo'xori o'stirish bilan), yoki (elektr energiyasi ishlab chiqarish jadvali) va. h.k., deb yozish shart. Ana shunday xotira uchun yozuvlar kelgusida ular ustida ishlaganda materialni aniq tassavur etishga, eslashga yordam beradi.

Talaba uchun ma'ruzaning asosiy mazmunini tez, aniq qisqa va tushunarli jumlar bilan yozib olishni o'rganishi juda muhimdir. Talaba mehnatining oliy bosqichi ma'ruzani maxsus daftarga birdaniga toza va chiroyli qilib yozish, kelgusida uning ustida ishlaganda faqat tekshirish va to'ldirishini ko'zda tutadi.

Talabaning yozuvi (dastxati) va yozish madaniyatining ahamiyati ham kam emas. Talaba materialni sahifaga taqsimlashni, qisqa, aniq yoza olishini, asosiy fikr va qoidalarini ajratishga odatlanishi, qismlarga shunday ajratish uchun rim yoki arab raqamlari, o'zbek va lotin alifbolari harflarini ishlatishga odatlanishi zarur.

Ana shunday yozuvlar rejaning ma'ruzaning asosiy mazmunini birdaniga tez ilg'ab olishga va u bilan ishlashda vaqt va kuchni tejashga sezilarli yordam beradi.

Ma'ruzani yozib olishda qisqartirilgan so'z va atama (termin) lardan foydalana olish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak. Biroq, yozuvlarni

mukammal rasmiylashtirishni ma'ruza paytida oxirigacha yetkazib bo'lmaydi. Buning uchun qo'shimcha ishlash talab etiladi. Shu bois o'sha kunning o'zida esda borida, unitilmasdan yozuvlarni diqqat bilan o'qib, unga tuzatish kiritish, qoldirib ketilgan qoidalar, ta'riflarni tiklash, eng muhim joylarni ajratib, ularni rangli qalamlar bilan tagini chizish zarur.

O'quv materialini shunga o'xshash taqsimlash, ajratish va qisqartirish turli talabalarda har xil bo'lishi tabiiy, Shuning uchun ma'ruza yozuvlari alohida individual harakterga ega bo'lib, uni yozganga tushunarli bo'ladi. Shu bois begona yozuvlardan foydalanish tavsiya etilmaydi.

Ma'ruzani konspeklashtirishda qator qoidalariga rioya qilish kerak:

-har bir predmet bo'yicha yozuvni alohida daftarda olib borish;

-birdaniga oqqa yozing, ko'chirish qo'shimcha vaqtini oladi;

-aniq yozing, dastxatingizni kamchiligini o'rganing va uni tuzating.

Unutmang tushunarlimas dastxatingizni tahlil qilib, bexudaga vaqt yo'qotasiz.

-nafaqat aniq, balki tez yozishni o'rganish. O'zingizni tekshirib ko'rish, siz bir minutda 150 ta harf yozishingiz kerak; xohlaganingizda va o'z ustingizda kamgina ishlaganingizda siz 150 ta harf yoza olasiz.

-so'zlarni qisqartirish va shartli belgilardan foydalanish, bu vaqtni sezilarli darajada qisqartiradi, masalan, GES- gidro elektr stansiya, QTT- qisqa to'qnashuv toki, I/ch - ishlab chiqarish, x/x - xalq xo'jaligi, Σ -yig'indi, > - katta, < - kichik, = - teng, \neq - teng emas, \geq - katta emas, \leq - kichik emas, \uparrow - o'sadi, \downarrow - pasayadi va h.k. Har bir talaba o'zining so'zlarini qisqartirish tizimini, o'rganilayotgan materialga mos ravishda yaratishi mumkin;

-doskadan grafik bog'lanish (rasm) larni daftarga tez va aniq ko'chirishni o'rganish;

-ma'ruzani matn (konspekt) lashtirishda daftar sahifasining bir tomonida joy (xoshiya) qoldirish, boblar va bo'limlarni ajratish, asosiysini tagini chizish;

-Matn (konspekt) olib borish qiziqarli ish bo'lib qolishiga erishing, uni tashqi ko'rinishidan qoniqish hosil qilishiga erishing;

-rasm (sxema) larni ifodalashda rangli qalamlardan foydalanish tavsiya qilinadi, chunki uning qismlarini rang bilan ajratish rasm mohiyatini tez tushunishga ko'maklashadi.

U yoki bu fan bo'yicha ma'ruza (leksiya) dan oldin har bir talaba oldingi ma'ruza matn (konspekt) ni o'qishi lozim. Ma'ruzachi fanning biror yirik bo'limini bayon qilgandan keyin uni konspekt va kitob bo'yicha ishlab chiqish zarur. Materialni shunday o'rganishga talabalarda qiziqish uyg'otish maqsadida ba'zan fanning ayrim muhim bilimlarini o'zlashtirishga yaxshi yordam beruvchi nazorat ishlari ko'zda tutiladi.

Yuqorida bayon qilinganidek, fanlarni ma'ruza matn (konspekt) lari bo'yicha o'rganish yetarli emas. Ularni yaxshi o'zlashtirishga erishish uchun muntazam ravishda darslik, kitob bilan ishlash lozim. Matn (konspekt) faqat darslik materialini o'zlashtirishni yengillashtiradi, xolos. Matn (konspekt) o'quv darsligida nima, ayniqsa muhimligini ko'rsatadi va ko'p hollarda ushbu muhim savollar bo'yicha qo'shimcha yangi ma'lumotlar beradi.

“Pedagogika tarixi ” fanidan ma’ruzani yozib olish bo‘yicha namuna keltiramiz:

Mavzu: Eng qadimgi yozma manbada ta’lim–tarbiya. “Avesto” – eng qadimgi ma’rifiy yodgorlik namunasi. Qadimgi “Avesto” yozuvlarining ta’lim-tarbiyani rivojlantirishdagi o‘rni

<p>“Avesto” ni vujudga kelishining tarixiy sharoitlari</p> <p>Zardusht, Zardushtiylik dinining asoschisi, buyuk tarixiy shaxs, sharqning faylasufi, notig‘i. donishmandi</p>	<p>“Avesto” eng qadimgi qo‘lyozma bo‘lib, unda yakka xudolik g‘oyasi ilgari surilgan.</p> <p>Zardushtiylik dini, Zardushtiylik ta’limoti Markaziy Osiyo hududida eng qadimiy va eng mashhuri bo‘lgan. Zardushtiylik dini milloddan oldingi VII asrda Amudaryo va Sirdaryo oralig‘ida vujudga kelgan. “Avesto” ning yaratilishi zaminimizda buyuk madaniyat va ma’rifat mavjudligining yorqin dalili hisoblanadi. “Eng mo‘tabar qadimiy qo‘lyozmalar “Avesto” yaratilganligiga 3000 yil bo‘lyapti, – deydi brinchi Prezidentimiz I.A.Karimov, - bu nodir kitob bundan XX asr muqaddam ikki daryo oralig‘ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlarga qoldirgan ma’naviy tarixiy merosidir”. “Avesto” ayni zamonda bu qadim o‘lkada buyuk davlat, buyuk ma’naviyat, buyuk madaniyat bo‘lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hech kim inkor eta olmaydi”</p> <p>(O‘zbekiston ovozi gazetasi, 1998 yil 22-avgustdagi). Bu davrda turli dinlar va aqidalar mavjud bo‘lib, o‘tmish ota-bobolarimiz ko‘p xudolarga topinganlar, ularga bog‘liq rasm-rusumlarni bajarganlar. Ana shunday rasm-rusumlarning biri har bir qabila o‘z xudoriga qurbonlik keltirish bo‘lib, shu tufayli chorva mollarning keskin kamayishiga, hatto qirilib ketishiga olib kelishi natijasida u yoki bu hududda istiqomat qilgan qabilalar o‘rtasida nizo, qirg‘in-barot urushlarning sodir bo‘lishiga sabab bo‘lgan.</p> <p>Xorazm hokimligiga qarashli chorvachilik bilan shug‘ullangan Spitama urug‘idan bo‘lgan Zardusht (otasining ismi Paurushapa, onasi Dugdova bo‘lgan)</p> <p>Zardushtning buyuk xizmati ko‘p qurbonlik qilish natijasida borgan sari chorva mollarning kamayishini, qirilib ketayotganini ko‘rib, buning oqibati xunuk bo‘lishini oldindan payqab, shu tufayli qabilalar o‘rtasida tez-tez sodir bo‘layotgan nizo, urushlarning negizi ko‘p xudolik bilan bog‘liq ekanini chuqur his etib, turfa dunyoqarashdagi keksalar bilan suhbat, muzokaralar o‘tkazib, Zardusht ko‘pxudolikning zararini o‘zi ham tushunib yetdi hamda qabila boshliqlariga va keksalarga betinim tushuntirishga harakat qildi.</p> <p>Shu bois Zardusht yigirma yoshida o‘zining nor tuyasiga minib (Zardusht–sariq tuya sohibi ma’nosini anglatadi) qishloqma – qishloq, shaharma – shahar kezib, yakkoxudolik g‘oyasini tinimsiz targ‘ib qiladi.</p> <p>Zardusht nafaqat yagona xudo – Axuramazdani kashf qiladi, balki qabila va urug‘chilik e‘tiqotlariga qarshi yakkaxudolik g‘oyasini</p>
--	---

	<p>Axuramazdani targ'ibot–tashviqot qila boshlaydi.</p> <p>Zardusht ilgari surgan yakkaxudolik g'oyasining negizini ikki narsa: mutloq g'oya – Xurmuzning yakka–yagonaligini tan olish; yaxshilik bilan yomonlik, rostgo'ylik bilan yolg'onchilik, zulmat bilan nur o'rtasidagi doimiy kurash haqidagi ta'limot borliqni ikkiga bo'lib qarash – dualistik qarashga sodiqlik tashkil etadi.</p> <p>Axloqning asosi, saxovatlilik belgisi - mehnat bo'lsa, ishyoqmaslik barcha nuqsonlarni keltirib chiqaradi. Inson mehnat tufayli barcha yomon xislat, yomonlik va yovuzliklardan qutulishi mumkin.</p> <p>“Ezgu niyat” iborasi mazmuni o'zida ilohiy qonun ruhidagi g'oyalarga ega bo'lish, yaqin kishiga nisbatan mehribonlik ko'rasatish, muhtojlarga ko'maklashish, yovuzlikka qarshi kurashishga doimo tayyor turishga, kishilarning baxt saodati yo'lida harakat qilish, ahillik, qabiladoshlari bilan birga do'stlik va totuvlikda yashashga intilish yo'lidagi fikrlar musaffoligini aks ettiradi.</p> <p>“Ezgu fikr” deganda so'zida turish va berilgan vadani bajarish kabilar nazarda tutiladi.</p> <p>“Ezgu amal” deganda savdo-sotiq ishlarida halol bo'lish, qarzni vaqtida to'lash, o'g'rilik va talonchilik qilmaslik, o'zgalar moliga ko'z olaytirmaslik, buzuqliklardan o'zini tiyish, atrofidagilarga ziyon etkazadigan har qanday harakatni sodir etmaslik tushuniladi.</p>
<p>Axloq</p> <p>Ta'lim-tarbiya.</p> <p>Botanika.</p> <p>Dorivor o'simliklar.</p> <p>Anatomiya</p> <p>.</p> <p>Fiziologiya</p> <p>Ekalogiya.</p> <p>Tabiatni muhofaza qilish.</p>	<p>“Avesto”da dunyodagi barcha – diniy, dunyoviy, tabiiy fanlar bo'yicha teran mulohazalar berilgan.</p> <p>Za'fran, keski, kunjut, ko'knori, sipokd, zira, piyoz, sedana, savsan, qatron, qandshakar, turp, xurmo, sabzi, behi, zaytun va shirasi, bargi, doni, guli, mevasi va ildizidan yog' tayyorlangan.</p> <p>Inson a'zolari – mushak, suyak, miya, asab, badan, tomir va qonga (asab va miya–yerga, badan tuki – daraxtga o'xshatilgan), badandagi tomirlar – qora qonli tomirdan qizil qonli tomirlar va oq qonsiz tomirlar asabga bo'lishgan.</p> <p>“Avesto”da yer, suv va havo muqaddas deb e'lon qilinib muhitni iflos qilgan va uni asrash qoidalarini buzgan shaxslar 400 qamchi urib jazolangan.</p> <p>Mikroblar tarqatuvchi axlatlarni bekitish, ifloslangan joylarni tuproq, tosh, kul bilan ko'mish; otash, issiqlik, va sovuqlik yo'llari bilan ularni yo'qotish; turli giyoh – (isfand, mixak, sadaf, piyoz, aloe, sandal)larni tutatish hamda kul, sirka va sharobni qo'llash.</p>

Kitob mutolaasi va kitob bilan ishlash metodlari

Ma'ruza materialini kitob bilan darsliklar bilan va boshqa adabiy manbalarni o'qish jarayonida chuqurlashtiriladi, aniqlashtiriladi va kengaytiriladi. Shu bois talabalar oldida qanday kitoblarni o'qish va qanday tartibda o'qish kerak degan muhim masala turadi.

Muvaffaqiyatli mashg'ulotlar uchun kitobni to'g'ri tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Aksariyat hollarda majburiy adabiyotlar ro'yxati

o'quv dasturlarida; uslubiy xatlarda va maxsus tayyorlangan topshiriqlarda beriladi. Biroq, mashg'ulotlar jarayonida har bir odamda o'rganilayotgan fanning bo'limlariga alohida maxsus qiziqish uyg'onadi, natijada majburiy adabiyotlarni o'rganishdan tashqari qo'shimcha adabiyotlarni o'rganishga ehtiyoj tug'uladi.

Kerakli adabiyotni har kishi mustaqil topishi zarur. Ushbu maqsad uchun sistemali katologdan foydalanish lozim. Unda asarlar mualliflarining ismi shariflari oilaviy tartibida joylashtiriladi. Bundan tashqari kutubxonalarda tizimli predmetli kataloglar mavjud bo'lib, unda adabiyotlar bilimlar tarmoqlari tartibida joylashtiriladi. Ushbu kataloglar bo'yicha u yoki bu mavzu bo'yicha adabiyotlarni tez topish mumkin. Ayrim mavzular bo'yicha bibliografik ko'rsatkichlar atroflicha adabiyotlar ro'yxatini o'z ichiga oladi, ba'zan ushbu kitoblarning qisqacha annotatsiyasi ham beriladi. Masalan, (Pedagogika) fanining "Sinf rahbari" mavzusi bo'yicha "O'qituvchi nashriyoti" tomonidan nashr qilingan bibliografik ko'rsatkich sinf rahbari vazifasini bajaruvchi pedagog bolalar bilan tarbiyaviy ish olib borishga uslubiy yordam ko'rsatish maqsadiga qaratilgan.

Bo'limlar bo'yicha sistemali tarzda joylashtirilgan adabiyotlar ro'yxati beriladi. Asosiy pedagogik asarlar qisqacha annotatsiyasi bilan berilgan. Maxsus bibliografik ko'rsatkichlar ba'zi hollarda alohida ilmiy ishlarga ilova sifatida bostiriladi. Ana shunday ko'rsatkichlardan foydalanib nisbatan qisqa vaqt ichida kerakli kitobni topish mumkin.

Kitob mutolaasi

Bundan tashqari, kutubxonalarda bilimning turli tarmoqlari: tarix, falsafa, biologiya va boshqalar bo'yicha ko'rsatkichlar bo'lib ularda tavsia etilgan adabiyotlar nashr etilgan yillari, ya'ni tarixiy tartibda joylashgan.

Davriy nashr bilan ishlaganda yil davomida nashr etilgan maqolalar tavsia etiladi, ular har yil davomida nashr etilgan jurnalning oxirgi sonida joylashtiriladi. Gazeta va jurnallarda tanqidiy-bibliografik maqolalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Tanqidiy-bibliografik bo'limining yangi materiallarini o'qish, bizni keyingi vaqtda ularning mazmunini tanqidiy tahlil qilingani bilan tanishtiradi.

Zarur adabiyotlar ro'yxati aniqlangandan keyin uni kutubxonadan izlash chorasi ko'riladi. Zarur adabiyot kutubxona fondida bo'lmasa, uni kutubxonalar aro abonentga buyurtma berish zarur. Natijada kitob boshqa kutubxona fondidan olib kelinadi. Shunday qilib kerakli adabiyot hamma vaqt topiladi. Endi kitob bilan ishlash tartibini aniqlash, ya'ni kitobni qanday o'qish kerak degan savolga javob topish zarur. O'qishga kirishganda ushbu o'qishning maqsadini aniq aniqlash zarur. Maqsadni aniqlash odam ongini materialni izlashga safarbar qiladi, uning diqqatini eng muhimiga jalb etadi.

O'qish maqsadlari turlicha bo'lishi mumkin, ya'ni; kitob mazmuni bilan umumiy tanishish; o'rganilayotgan savol bo'yicha qo'shimcha material yig'ish; ta'rif, tushuncha va atamalarni izlab topish; ma'lum mammo yoki amaliy masalalarni yechish uchun manbalarni o'rganish; kitobni bir necha maqsadlar uchun o'rganish; va h.k. Biroq, biz o'z oldimizga qanday

maqsadlar qo‘ymaylik kitob ustida ishlash bo‘yicha ko‘plab metodik priyomlar ishlatilishi lozim.

Ish boshlashdan oldin avvalgi marta o‘qiganingizni xotirada tiklash juda muhim hisoblanadi. Eskirgani bilan aloqa o‘rnatish o‘rganilayotgan materialni mazmunan tushunarliroq va to‘liqroq qiladi.

Kitobni o‘qishni u bilan umumiy holda tanishishdan boshlash maqsadga muvofiq. Uning birinchii sahifasini ochish bilan kitob muallifi, sarlavhasi, mundarijasi, nashr etilgan joyi va vaqti bilan tanishamiz. Bu ma’lum darajada bizni kitobning mazmuniga yo‘naltiradi. Bundan keyin bizni kirish yoki so‘zboshi, boblar ro‘yxati va eslatmalar qiziqtirishi lozim.

Kitobning “Kirish” qismida uning mazmuni haqida gapiriladi. Undan kitobxon mo‘ljallanadi, kitobning maqsadi va vazifalari bilan tanishadi.

“Mundarija”da kitobning tuzilishi, uning rejasi, boblar mazmuni, sahifalar bo‘yicha materialni joylashishi yoritiladi.

“Eslatma”lar sahifalar bo‘yicha beriladi, yoki kitobning oxiriga chiqariladi. Eslatmalar alohida joylarni tushuntiradi. Matnda qisqa bayon qilingan holat (qoida) larni to‘ldiradi. Ularga sitatlar, faktlar, nomlar haqida tarixiy ma’lumotlar beriladi, tushunmagan so‘zlar tarjima qilinadi.

“Xulosa”da kitobda bayon qilingan barcha materiallar umumlashtiriladi, kitob muallifi shug‘ullangan asosiy savollarga e‘tiborni jalb qiladi.

Kitobning oxirida keltiriladigan Bibliografiyada o‘rganilayotgan masalalar bo‘yicha adabiyotlar keltiriladi. Ko‘rsatkich nomma–nom va sistemati–predmetli bo‘lishi mumkin. Kitobni birinchi o‘qish dastlabki hisoblanadi va kitobning yoki uning qismi mazmunini qamrab olish, muallifning g‘oyasini, uning asosiy jihatlarini o‘zlashtirish hamda unga o‘z munosabatini aniqlash kabi maqsdadni qo‘yadi. Odatda birinchi o‘qishdan keyin materialni o‘zlashtirish qiyin bo‘ladi. Shu bois uni takror o‘qishga qaytish kerak, bunda aniq o‘zlashtirilgan yoki bizning mavzumizga bog‘liq bo‘lmagan joylari qoldirib ketiladi. Eng muhim joylarini uchinchi marta ham o‘qish mumkin.

Shunday qilib, takror o‘qish jarayonida kitobxon muallifning asosiy fikr, g‘oyalarini o‘zlashtiradi.

Kitob mazmuni o‘zlashtirishda eng muhimi – bu asosiy fikrlarni va bosh g‘oyani topa bilish, uni ajratishni uddalashdir. Qachon fikr topilsa, u o‘zlashtirilishi shart. Uni o‘ylash, tushuntirish, sharhlash, izohlash lozim. Bu aqliy faoliyatda eng og‘ir jarayonlardan biridir. Agar material mazmuni o‘zlashtirilgan bo‘lsa, u holda asosiy fikrni oson ajratish mumkin.

Shundan so‘ng muallif keltirilgan faktlarga diqqatni jalb qilish zarur. Ulardan eng tipiklarini ajratib olish, obdon o‘ylab ko‘rish, ularga o‘zining faktlarini qo‘shishga urinish, muallifning fikr-mulohazalaridan to‘plagan o‘z dalillarini qo‘shish, bu fikr-mulohazalarga o‘z navbatida qo‘shilish, xulosa va umumlashtirish qilish asqotadi. Hamma tushunadigan, barcha bo‘lmagan so‘zlar va ifodalarni lug‘atlar yoki spravochnik (ma’lumotnoma) orqali anglab tushunib olish zarur. Rasmlar, jadvallar sxemalarini e‘tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Ayni paytda ularda materialning asosiy qismi ko‘rgazmali taqdim etilgan bo‘lishi mumkin. Shu bois rasmlar, jadvallar, sxemalarini o‘qish texnikasini har bir kishi egallashi lozim.

Kitob va jurnallar maqolalarini tez o'qish tavsiya qilinadi. Tez o'qishda diqqat jamlanadi, bu esa ravshan tushunishni va o'qilgani xotirada saqlanishini ta'minlaydi. Bundan tashqari tez o'qishda bir bo'limni boshqa bo'lim bilan yaqin aloqasi o'rnatiladi, bu esa materialni yaxshi uzlashtirilishini ta'minlaydi, mutolaa kuchli taassurot chaqiradi, bu ham aqliy mehnat sifatiga ta'sir qilmasdan qolmaydi.

O'qilganni o'zlashtirish sifatini pasaytirmasdan o'qish texnikasini takomillashtirishga har bir kishi erishishi mumkin, buning uchun uning sur'atini oshirishga harakat qilishi lozim. Buning uchun ish sur'atini aniqlash va o'zini mashq qilishi va o'rtacha qiyinchilikdagi matn sahifasini o'qishga sarflangan vaqtni asta-sekinlik bilan kamaytirish kerak. To'g'ri o'qishni aniqlovchi mezonni o'qilganni to'g'ri tushunish, o'rganilayotgan manbaning asosiy jihatlarini ongli o'zlashtirish hisoblanadi. O'qishda sustlikni qator sabablar bilan tanishtirish mumkin. Birinchi sabab, har bir so'zni o'z ichida gapirib o'qish hisoblanadi. So'zlarni talaffuz qilmasdan ko'z bilan o'qishga harakat qilish kerak. Bundan tashqari sur'atini oshirishda ayrim-ayrim so'zlarni emas, balki butun bir jummalarni o'qish, ko'rish maydoniga iloji boricha ko'p so'zlarni kiritish, o'qish malakasini shakillantirish orqali erishish mumkin. qisqacha umumlashtiriladi, kitob muallifi shug'ullangan asosiy masalalarga diqqat jalb etiladi. Kitobning oxirida keltirilgan bayon qilinayotgan masala bo'yicha, bibliografiyada adabiyotlar ro'yxati beriladi.

Mutolaa qilingan materialni matnlashtirish

Asosiy va qo'shimcha adabiyot mazmunini takror o'qigandan keyin uni yozib berish asqotadi. Adabiyot muallifi yozganining hammasini emas uning asosiy fikrlarini tanlab olishi joiz. Kitob ustida mustaqil ishlash jarayonida yozuvlarni takomillashtirish kitobxon ishining tobora murakkablashishi munosabati bilan yuzaga keladi.

Ya'ni undan tayyor qoida va fakt (dalil) larni batafsil yozib olish bilan bir qatorda eng muhim qoida (holat) larni qisqa va mustaqil ifodalangan xulosalar chiqara olish ko'nikmasiga ega bo'lish talab qilinishi.

Yozishning ahamiyati juda katta. Yozuv kitob bilan ishlashning hujjatli ifodasidir. O'qilgan materialni yozish jarayonining o'zi talaba ishini tashkel etadi va ta'lim sifatini yaxshilaydi, kitobxonning nutqiy madaniyatini oshiradi. O'qilgan kitob mazmunini o'zlashtirish va esda saqlab qolishni yengillashtiradi.

Yozuvlarni takomillashtirishga intilish lozim, ular seminar, amaliy mashg'ulotlariga zachot imtihonlariga tayyorgarlik ko'rishda asosiy qo'llanma hisoblanadi. Agar ushbu qo'llanma sifatsiz bo'lsa, mashg'ulot natijalari ham uncha katta bo'lmaydi.

Yozuvlar ahamiyatli bo'lishi uchun asosiy fikrlarni ajratib olish va ularni qisqacha ifodalab qayd qilish kerak. Mufassal yozish yoki matnни ko'chirib olish maqsadga muvofiq emas. Chunki u ko'p vaqtni olad va zarur natijani bermaydi. Qisqa, lo'nda ko'chirmalarni yozish jarayonida

o'qilgan materialni ongli va puxta o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Yozuvlardan foydalanish qulay bo'lishi uchun yozuvlarni tartib bilan amalga oshirish lozim. Yozuvni bob o'qilgandan keyin, agar material qiyin bo'lsa, paragrafdan keyin boshlash maqsadga muvofiq. Kitob bobini o'qigandan keyin uning rejasini, keyin esa rejaning har bir qismi mazmunini ham aniqlaymiz.

O'qilgan materialni qayd qilishni turlicha olib borish mumkin. Qo'yilgan maqsadga muvofiq ravishda eng qulay shakl tanlanadi. Yozuvning reja ko'chirmalar tezislar konspekt kabi shakllari mavjud.

REJA- bu kitob mazmunining asosiy savollar ro'yxati. O'qilgan kitob bo'limi rejasini yoritish taffakurning o'ziga xos ishi. Reja bandlarini ifodalsh umumiy mazmundan muallif e'tibor bergan savollarni ajratish zarurati bilan bog'liq. Masalan, "Pedagogika nazariyasi va tarixi" fani bo'yicha

Prof. M Toxtaxojaevaning umimiy taqrizi ostida nashr qilingan Pedagogika darsligining ikkinchi qismini o'rganishda quyidagi rejani tuzish mumkin.

1. Tarbiya maqsadlarining obyektiv harakteri,
2. Milliy maktabda tarbiyaning maqsadi,
3. Ijtimoiy tarbiyaning mazmuni,
4. Ijtimoiy tarbiya vazifalarini amalga oshirish yo'llari.

Oddiy rejadan tashqari mufassal kengaytirilgan rejalar ham tuzilib, unda har bir band kichik bandlarga bo'linib, ular o'qilgan material mazmunini chuqurroq anglab olish imkonini beradi. Jumladan, yuqorida ko'rsatilgan "Tarbiya maqsadi va vazifalari" mavzusi bo'yicha tuzilgan murakkab rejaning namunasini keltiramiz:

I. TARBIYA MAQSADLARINING OBYEKTIV HARAKTERI:

- Yosh avlodni tarbiyalash vazifasining ijtimoiy tizimga bog'liqligi;
- ijtimoiy tuzumni o'zgarishi tarbiya maqsadini o'zgarishiga olib kelishi;
- tarbiya maqsadlarini qo'yish jamiyat ehtiyojiga bog'liq bo'lishi.

II. MILLIY MAKTABDA TARBIYA MAQSADI:

- Ulug' mutafakkirlar asarlarida barkamol avlod tarbiyasi;\
- birinchi Prezident I. A. Karimovning barkamol avlodni tarbiyalash bo'yicha ta'limoti;
- barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.

III. TARBIYA MAZMUNI

1. Jismoniy tarbiya
2. Aqliy tarbiya
3. Politexnik ta'lim
4. Axloqiy tarbiya
5. Ma'naviy tarbiya
6. Estetik tarbiya

7. Iqtisodiy tarbiya
8. Ekologik tarbiya
9. Huquqiy tarbiya

IV. TARBIYA VAZIFALARINI AMALGA OSHIRISH YO‘LLARI.

1. Maktabning o‘quv- tarbiya jarayoni
2. Yosh va individual o‘ziga xosliklarini hisobga olish
3. Ta’lim va tarbiyaning yagona tizimi.

Kitob ustida mustaqil ishlash jarayonida uning kerakli joylari, qiziqarli jihati (qoidalari) ni sitata ko‘rinishida ko‘chirib olishga ehtiyoj tug‘iladi

Ko‘chirmalar, yoki sitatalar muallifning haqiqiy fikrini so‘zma–so‘z qaytarishdan iboratdir. Sitatini aniq, xatosiz va ixtiyoriy o‘zgarishlarsiz ko‘chirib olish lozim. Ular kitob matining aniq parchasi bo‘lib, manbaga havola qilinadi. Agar matnda so‘z qoldirsak, u holda ko‘chirmalarni uchta nuqta [...] bilan tasvirlash lozim.

Sitatalar muallifning haqiqiy fikrini aks ettiradi va qo‘shirnoq ichiga olinadi. Sitatani fikr tugamaguncha o‘rtasidan uzish mumkin emas, chunki bu matn ma’nosini buzishi mumkin. Sitata olishni matni bayon qilish usuli sifatida ham qo‘llash mumkin. Mazkur holda sitatani jiddiy tizimda joylashtirib ularni umum sarlavhalar bilan guruhlash lozim. Masalan, mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.A.KARIMOVning “Yuksak manaviyat-yengilmas kuch” asari “Muqaddimasi”. (T.: “Ma’naviyat”. 2008) o‘qilganda ko‘chirma ko‘rinishidagi yozuvlarni quyidagicha taqdim etish mumkin:

Mustabid tuzum davrida biz kim edik ? “O‘zingiz o‘ylab ko‘ringlar, aziz do‘stlar, mustabid tuzum, mustamlakachilik davrida kim edik”, “Taqdirimiz, erkimiz kimlarning qo‘lida edi? “ Mustabid tuzim davida biz kim edik?

Ka’ba deb qayerga sig‘inar edik? Har tong Assalom!...” degan madhiya ohanglari ostida kimlarga qulluq qilib uyg‘onardik?

Tilimiz, dinimiz qay ahvolda edi? Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Xoja Bahouddin Naqshbandilarning muqaddas hoklariga e’tibor bormidi? Amir Temur, Bobur Mirzo va boshqa ulug‘ bobokalonlarimizning buyuk nomlari qaysi tuproqqa qorishib yotgan edi?...” (B. 5-6).

O‘qilganni qayd qilishni erkin yozuv shaklida ham taqdim etish mumkin. Erkin yozuv SITATALarni ham muallif fikrining qisqacha bayonini ham turli ko‘rinishdagi (oddiy, murakkab va **tezis**) rejalarni ham o‘z ichiga oladi. Ular kitobxonning individual o‘ziga xosliklariga va bilimlariga eng katta darajada mos

kelishi bilan qulaydir.

U yoki bu kitob mazmunini yozishda bizga kam tanish bo'lganini qayd qilamiz, bizga tanish bo'lganlarini qisqacha, hatto reja shakligacha olib boramiz. Kitob ustida mustaqil ishlaganda ko'p hollarda yozuvlarning tezis shaklidan foydalaniladi.

TEZIS deb muallif aytgan biror qoidani qisqacha ifodalashga aytiladi. Odatda tezis reja savoliga javob beradi. Tezislarni, ularga muallifning asosiy qoidalarini qo'shib o'z so'zimiz bilan ifodalashimiz mumkin.

Tezislarni joylashtirish ularning matndagi ketma-ketligiga mos kelishi lozim.

REJA TEZISLAR

Nafaqat reja, balki matn mazmuni ham kitobxonga tushunarli bo'lishi uchun yozuvlar kitob matnini diqqat bilan o'qiganidan so'ng rasmiylashtiriladi. Tezislarni tuzishda material mazmunini ochiq-oydin qilib olish, ayniqsa, muhim.

Har bir tezis – bu, u yoki bu bob qismining qisqacha mazmuni, shu bois talaba nafaqat o'qiyotgan bobini, balki uning har bir qismida nima bayon qilinganini jiddiy tushunib olishi lozim.

Ushbu mazmuni tezis shaklida qisq, tushunarli va to'g'ri, uning ma'nosini buzmasdan, ifodalash lozim.

Biroq, kitobxonga hamma vaqt ham materialni rejalar, ko'chirma (sitata)lar yoki tezislarni shakllarida qayd qilish maqsadga muvofiq bo'lavermaydi. Boshqa hollarda kitob mazmunini qisqacha aytib berish zarurati vujudga kelishi mumkin. Bu holda konspekt tuziladi.

Konspekt o'qilgan materialni yodda saqlashga imkon beradi va zarurat bo'lishi bilan qo'shimcha ishlash uchun takror kiritishga yordam beradi. Konspekt shaklidagi yozuvlar kitobda qanday bo'lsa shunday ketma-ketlikda amalga oshirilishi lozim. Bu o'rganilgan manbani xotirada tiklashni yengillashtiradi. Qancha qisqa yozilsa, ifodalashga so'zlar va ifodalar tanlashga shuncha jiddiy munosabatda bo'lish kerak. Maboda mufassal yozuvda yaxshi chiqmagan ifodalar bo'lsa, ular asosiy ma'noni buzmaydi.

Konspektga bir vaqtni o'zida bir necha manbalardan material qo'shish mumkin. Bu holda masala kengroq yoritilgan manbani tanlab, uni konspektlashtiramiz, keyin uni boshqa manbalardan olingan materiallar bilan to'ldiramiz.

Islom Karimovning "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" asari bo'yicha tuzulgan tezislarni keltiramiz.

Reja	Tezislarni
Bizga sobiq Ittifoqdan, eski mustabid	"... bizga mo'rt, zaif biryoqlama rivojlangan, paxta yakka hokimligi va boy mineral – xomashyo resurslaridan nazoratsiz, ayovsiz foydalanish asosiga qurilgan iqtisodiyot og'ir meros

<p>tuzumdan qanday tarixiy meros qoldi ?</p>	<p>bo‘lib qoldi...”</p> <p>“... respublikamiz yonilg‘I va g‘alla masalasida markazga qaramligi.., un, shaker, go‘sh, sut, kabi mahsulotlar eng muhim oziq–ovqat mahsulotlarining chetdan olib kelinishi...”</p> <p>“... o‘tkir ijtimoiy, ekologiya muammolari hal etilmayotgan, nufuzi jadal suratda o‘shib borayotgan, aholi turmush darajasi jihatdan sobiq SSSRda eng oxirgi o‘rinlardan birini olib turgan payt...”</p> <p>“... noinsoniy g‘oya hukmron bo‘lgan mustabid tuzum o‘zining bor mafkuraviy kuchini, ommaviy axborot vositalarini bugun maorif tizimini ishga solib odamlar ongini keng miqyosda zaharlashi ...tarixiy haqiqatni buzib ko‘rsatishi...”.</p>
<p>O‘zbekistonni mustaqil rivojlantirish borasida nimalarga erishildi ?</p>	<p>“... mustaqillik va istiqlolni qo‘lga kiritib, o‘z taqdirimizni o‘zimiz belgilash, barcha tabiiy, mineral–xomashyo boyliklarimizdan, mamlakatning butun salohiyatidan o‘z xalqimiz va uning kelajagi manfaatlarini yo‘lida foydalanish huquqiga ega bo‘ldik..”</p> <p>“Mamlakatda soxta g‘oya, ma‘muriy buyruqbozlik asosiga qurilgan sobiq ittifoqning mustabid tuzumiga barham berildi...”</p> <p>Erkin bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan demokratik davlatning konstitutsion, huquqiy va amaliy asoslarini yaratishga muvaffaq bo‘ldik.</p> <p>Mamlakatning jahon hamjamiyatidagi nufuzi va o‘rni oshishiga xizmat qiladigan, uning manfaatlariga mos keladigan tashqi siyosat va tashqi iqtisodiy aloqalarning mustaqil yo‘li shakllandi va izchil amalga oshirilmoqda.</p>

Mavzu: Ma‘naviyat - insonning ulg‘ayish va kuch- qudrat manbaidir.

<p>Ma‘naviyat</p>	<p>Sobiq Ittifoq davrida boshlangan tanglik, buxron, iqtisodiy va ma‘naviy qulash ittifoq parchalanishi bilan to‘xtab qolgani yo‘q. Bunday tanglik ba‘zi mamlakatlarda qisqaroq, ba‘zilarida uzoqroq muddat davom etadi. Ba‘zilarida esa tanglik hozirda ham davom etmoqda.</p> <p>Tanglikni tez yoki sekin bartaraf qilish, yangi tashkil topgan mustaqil mamlakatlarda toblangan rivojlanish yo‘lining to‘g‘rili yoki unchalik to‘g‘ri emasligi, qabul qilingan nazariyalar, siyosiy, falsafiy, iqtisodiy ta‘limotlarning vaziyatga qanchalik mos kelishi yoki kelmasligi bilan belgilanadi.</p> <p>O‘zbekistonda ma‘naviyat sohasidagi buhroni iqtisodiy buhrondan avvalroq to‘xtatishga erishiladi. MDH davlatlarining aksariyatidagi san‘at va televedeniya ommaviy axborot vositalari (OAV) da</p>
-------------------	--

fahsh va zo‘ravonlik, ur -yiqit va axloqsizliklar tunu kun namoyish etilayotgan bir paytda mamalakatimizda bunday ma’naviy buzuvliklarni targ‘ib qilishga chek qo‘yildi. Yurtimiz sanoati va OAV da insoniylik hamda insonparvarlik, millatlararo va dinlararo totuvlik hamda hamjihatlik hukumronlik qilishi ma’naviy sohada erishgan ulkan yutig‘imizdir.

Ma’naviyat murakkab hodisa bo‘lib, uning mohiyati, insoniyat taraqqiyotidagi o‘rni, uning tarixiy rivojlanishdagi ahamiyati va rolini ta’minlaydigan omillar birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ilk bor tahlil qilindi.

Ma’naviyat ulkan kuch-qudratga ega, u insonga kuch qudrat bag‘ishlaydi. Ma’naviyat jamiyatning yangilanishi, rivojlanishini ta’minlaydigan murakkab hodisadir.

Ma’naviy tarbiya Islom Karimov talqinida G‘arbdagi “ma’naviy tarbiya” (aslida xristian dini tarbiyasi) dan farqli ravishda ijtimoiy fanlar adabiyot va san’at, O A B lari hamda muqaddas kitoblar, aziz-avliyolar o‘g‘itlari, pand-nasihatlari vositasida shakllanadigan ma’naviy fazilatlarni ifodalaydi.

Ma’naviy tarbiyaning jamiyat hayotidagi o‘rni asarda shunday izohlangan “Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo‘lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma’naviy tarbiya masalasi hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi.”

Kitobning “ma’naviyatni anglash” faslida esa insoniy fazilatlar, ezgu maqsadlar haqida so‘z yuritilar ekan, “bunday ezgu maqsadlarga esa, faqat yuksak ma’naviyat uzluksiz ma’naviy tarbiya orqaligina erishish mumkin. Kitobda “ ma’naviy tarbiya” ga atroflicha va juda puxta yondashuv amalga oshirilgan.

“Ma’naviy tarbiya”ni yoritishning muhim jihatlaridan biri – unga tizimli yondashuvning amalga oshirilishidir. Tizimli yondashuvning mohiyati o‘rganilayotgan ma’naviy tarbiyaga tizim sifatida qarash, uni amalga oshirish vositasi bo‘lgan buyuk allomalarimiz tomonidan amalga oshirilgan buyuk kashfiyotlar, ibratli amallar, oila, mahalla, ta’lim tizimi singari ijtimoiy institutlari belgilab olishdan iborat.

Ma'naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar

Ushbu faslda ma'naviyatga tizimli yondashuvni amalga oshirilishi. Uni shakllantiruvchi omillarning ya'ni xalq tarixi, urf-odat va an'analari, qadriyatlari, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'xna tarixiy yodgorliklarning naqadar xilma-xilligida namoyon bo'ladi.

Xalqimiz ma'naviyati naqadar yuksak ekanligini Ona yurtimizning turli hududlarida mavjud bo'lgan to'rt mingdan ziyod moddiy ma'naviy obida umumjahon merosining noyob namunasi sifatida YUNESKO ro'yxatiga kiritilgani ham tasdiqlaydi.

Ma'naviyat va ma'naviy tarbiyaga tizimli yondashuvning mukammalligi shunda ham ko'rinadiki, Yevropadagi singari faqat diniy qarashlar va e'tiqod emas, balki kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, kimyo, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar xalqimizning buyuk ma'naviy boyligidir.

Ushbu faslda ma'naviyat va ma'naviy tarbiyaga tizimli yondashuvni "AVESTO", xalq og'zaki ijodi, muqaddas ISLOM dini, buyuk allomalarimizning bemsil ilmiy-ijodiy kashfiyotlari, Sohibqiron Amir Temurning ma'naviyat uchun keng yo'l ochib berishi "Alisher Navoiy vasiyati, jadid ma'rifatparvarlarining ijodiga nisbatan ham amalga oshirilgan.

Zardushtiylik dini muqaddas kitobini tub ma'no-mazmunini belgilab beradigan ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal, birligini jamiyatimiz xayotining ustuvor g'oyasi sifatida talqin etish bugungi kun ma'naviy ideallari shu bilan qanaqadir uzviy bog'liq, nechog'lik mustahkam hayotiy asosga ega ekani. O'lis ota-bobolarimizning aql-zakovati, qalb qo'ri bilan yaratilgan bu bebaho, noyob obida ko'xna o'lkada, biz yashab turgan tuproqda qadimdan buyuk madaniyat mavjud bo'lganligidan dalolat beradi. Unda bayon etilgan teran fikr va g'oyalar, hayot falsafasi bizni bugun ham hayratda qoldirmoqda.

"Alpomish" dostoni millatimizning o'zligini namoyon etadigan, avlodlardan-avlodlarga o'tib kelayotgan qahramonlik eposi bo'lib, unda tarix to'fonlaridan, hayot-mamot sinovlaridanomon chiqib, o'zligini doimo saqlagan el-yurtimizning bag'ri kenglik, matonat, oliyjanoblik, vafo va sadoqat kabi ezgu fazilatlarini badiiy talqin etilgan.

Xalq ijodi og'zaki

“Alpomish” dostoni bizga vatanparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. “ALP” degan unvonga ega bo‘lgan Alpomish timsolida biz vatanimizni yomon ko‘zlardan, balo- azolardan xalq og‘zaki ijodi asrashga qodir, kerak bo‘lsa, bu yo‘lda jonini ham fido qilishga tayyor bo‘lgan azamat o‘g‘lonlarimizni, bugungi alpomishlarning qiyofasini ko‘ramiz.

Islom dini azaldan inson ma’naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzodning yuksak ideallari, haq va haqiqat, insof va adolat to‘g‘risidagi orzu-armonlarini o‘zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustahkam qilayotgan g‘oya va qarashlarning yaxlit bir tizimidir.

U xalqimiz qalbidan chuqur joy olib, hayot ma’nosini anglash, milliy madaniyatimiz va turmush tarzimizni, qadriyatlarimiz, urf-odat va an’alarimizni bezavol saqlashda qudratli omil bo‘lib kelmoqda.

Muqaddas dinimiz o‘zining haqqoniyligi pokligi, insonparvarligi va bag‘rikengligi odamzodni doimo ezgulikka chorlash, hayot sinovlaridan o‘zish qadriyat va an’alarimizni ajdodlardan avlodlarga yetkazishda beqiyos o‘rin va ahamiyatga ega. U xalqimizning ma’naviyatini shakllantirishga, har bir insonni hayotda to‘g‘ri yo‘l tanlashi, umrining mazmunini anglashi, ruhiy poklanishi, yaxshilik va ezgulikka intilib yashashida tengi yo‘q ta’sirga ega. Uni pok saqlash turli g‘arazli xuruj va hamlalardan himoya qilish, uning asl mohiyatini yosh avlodga to‘g‘ri tushuntirish zarur.

Xalqimiz islom dini va madaniyatiga beqiyos hissa qo‘shib kelgani uchun Toshkent shahrini AYSEKO 2007-yilda Islom madaniyati markazi deb e’lon qildi.

Musulmon olamida “Muhaddislar sultoni” deya ulkan shuhrat qozongan Imom Buxoriy yetishib chiqqan, u Qur’oni karimdan keyingi ikkinchi muqaddas manba bo‘lgan ishonchli hadislar to‘plami “Al-jomi as-sahih” kitobini yaratib, millionlab insonlar qalbini iymon nuri bilan munavvar etib, haq va diyonat yo‘liga chorlab kelmoqda.

Abu Iso Muhammad Ibn Iso Termiziy ham

o'zining ma'naviy merosi bo'lmish "Supani Termiziy" asari bilan musulmon olamida olimu fuzalolarga dasturi amal bo'lib kelgan insof va adolat, insonparvarlikni targ'ib etuvchi g'oyalarni hozirgi murakkab davrimizning ko'plab axloqiy-ma'naviy masalalarini hal etishda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Islom olamida "Musulmonlarning e'tiqodini tuzatuvchi" degan sharafiga sazovor bo'lgan. Imom Motridiy tomonidan asos solingan Motruদিয়া maktabi ilgari surgan g'oyalar islom dinining asosini to'g'rilik, ezgulik va insoniylikdan iborat deb bilgan jamiki mo'min-musulmonlarning qarash va intilishlari bilan hamohang bo'lgan.

Sharq olamida "Burxoniddin va milla", ya'ni "Din va millatning hujjati" degan yuksak unvonga sazovor bo'lgan Burxoniddin Marg'ironiyning o'lmas merosi "Hidoya" (To'g'ri yo'l) asari sakkiz asr davomida musulmon mamlakatlarida eng nufuzli va mukammal huquqiy manba bo'lib kelmoqda.

Din musulmon dunyosida Abduxoliq G'ijduvoni va Baxouddin Naqshbandning muborak siymosi alohida ajralib turadi. Naqshbandiyning "Diling ollohda, qo'ling mehnatda bo'lsin" degan hayotbaxsh hikmati dinimizning oliyanob ma'no-mohiyatini yorqin ifodalab, xuddiki shu bugun aytilgandek jaranglaydi.

Aniq fanlar rivoji uchun o'z vaqtida mustahkam asos yaratib, hozirgi zamon ilm-fan, texnologiyalari taraqqiyotiga ulkan turtki bergan buyuk allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning ibratli hayoti va faoliyati, bemisl ilmiy-ijodiy kashfiyotlari bugun ham jahon ahlini hayratga solayotganidan qalbimiz iftixorga to'ladi. Bunda biz beixtiyor o'nli sanoq sistemasini, algoritmi va algebra tushunchalarini dunyoda birinchi bo'lib ilm-fan sohasiga joriy etgan Muso Xorazimiyni, jahonda ilk bor yaratilgan "Astronomiya asoslari haqida kitob" asari bilan Yevropada Al-Fraganus nomi bilan mashhur bo'lgan Ahmad Farg'oniyni, fanning turli sohalarida betakror ilmiy natijalarga erishib, XI asrni "Beruniy asri" AQSH lik fan tarixchisi Salton deb atashga munosib bo'lgan buyuk vatandoshimiz ilmiy masalalarda ham, tarixiy voqea-hodisalarga ham, o'z zamondoshlariga baho berishda ham o'ta xolislik va haqqoniylik bilan fikr yuritgani uchun u hayotda ko'p aziyatlar chekkan, turmush qiyinchiliklariga duchor bo'lishiga qaramasdan e'tiqodidan qaytmagan uning o'z ma'naviy ideallariga naqadar sodiq

bo'lganidan dalolat beradi.

“Avitsenna” taxallusini olgan noyob fazilatlar sohibi Ibn Sinoning “Tib qonunlari” asari Yevropa oliy o'quv yurtlarida bir necha asrlar davomida asosiy tibbiyot darsliklaridan biri sifatida o'qitib kelingani, dunyo miqyosida “Meditsina”, “Sog'lom turmush tarzi” tushunchalarining fundamental asosi bo'lib xizmat qilgani, chuqur va ilmiy zaminga ega.

O'rta asrlarda Arabistonga borib, arab tili grammatikasini mukammal tarzda ishlab chiqqan, ilm-fanning ko'plab boshqa sohalarida shuhrat qozongan Maxmud Zamaxshariy, o'zining nogironligiga qaramay, dunyoning ko'plab mamlakatlariga mashaqqatli safarlar qilgan, teran bilim va ilmiy salohiyati bilan Islom olamini lol qoldirgan bu zot, xalqimiz uchun ma'naviy yetuklik timsoli bo'lib qolaveradi.

Oila, mahalla,
ta'lim-tarbiya

Mazkur faslda yosh avlod ma'naviyatini shakllantiradigan oila, mahalla, maktab va umuman ta'lim-tarbiya singari institutlarning har biri bu jarayonda qanday vazifani bajarishi lozimligi aniq va ravshan ko'rsatib berilgan.

Ushbu faslda ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmasligining ta'kidlanishi ma'naviy tarbiyaga tizimli yondashuvning yana bir muhim jihatidir.

Mustaqil ishda yozuvning tashqi tomoni ham katta ahamiyat kasb etadi. Yozuvlarni shunday ifodalash kerakki, toki ular yaxshi yodlashga, tushunishga yordam bersin va har qanday holda foydalanishga qulay bo'lsin.

Ushbu maqsadda turli shrift, numerlar bo'lishni turli usullarda foydalanish, materiallarni qulay joylashtirish, tagini chizish, rangli qalamlardan foydalanib, yozuvni aniq, alohida-alohida yozish kerak.

Matnning ma'lum qismiga diqqatni yo'naltirish uchun daftarning hoshiyasiga o'zimizning shaxsiy sarlavhalarni qo'yishimiz zarur, kitobning sarlavhasini, unda ko'rsatilgan paragraflar, punktlarini ishlatish mumkin. Eng muhim qoida, jihatlarini tagiga chizish yoki yirik shriflar bilan ajratish lozim.

Ko'p hollarda konspektidagi alohida qoida (jihat) larini to'plab, umumiy sarlavha tagiga materialni umumlashtirishga zarurat tug'iladi. Bu holda ularning misolida ko'rsatilgandek ustun qilib yozish tavsiya qilinadi.

O'qilgan materialni yozishga yuqorida bayon qilingan shakldan tashqari uni kartochkada aks ettirish mumkin. Kartochkali yozuv qator ustunliklarga ega: birinchidan, kartochka ishlatish uchun qulay: kartochkaga yozilgan ko'chirmalar har qanday ishga ham qo'llanishi mumkin.

Ikkinchidan, biror mavzuga bag'ishlangan kartochkani muntazam ravishda to'ldirish mumkin. Bu esa bizni qiziqtirgan masala bo'yicha materialni boyitib boradi. Uchinchidan, kartochkadan keraksiz, eskirgan materialni chiqarib tashlab, uni yangi bosmada paydo bo'lgan material bilan almashtirish mumkin. To'rtinchidan, kartochka tizimi bo'yicha rasmiylashtirilgan materialni birdaniga ishlatish shart emas, balki qismlar bo'yicha ishlatish, bunda uni o'rganish rejasiga muvofiq turlicha materiallashtirish mumkin.

Kartochka tizimida yozuvlar maktab daftarining yarim o'lchovidagi sahifasiga yoki maxsus kartochkaga yoziladi. Har bir kartochkaning yuqori qismiga bu yozuvlar rejaning qaysi savoliga tegishli ekanligi belgilab qo'yiladi. Kartochka tagida esa kitobning muallifi uning nomi, nashriyoti, chop etilgan yili va sahifalari, matn qayerdan olinganligi qayd qilinadi.

Kartochkadagi ko'chirmadan namuna keltiramiz.

MA'NAVIYAT NIMA ?

“Ma’naviyat” o’zida juda chuqur va keng qamrovli ma’no mazmuni mujassam etgan, bu tushunchaning “...Mazmuni faqat “ma’ni”, “ma’no” degan so’zlar bilan chegaralanib qolmaydi...” nega deganda, insonni inson qiladigan, uning ongi va ruhiyati bilan chambarchas bog’langan bu tushuncha har qaysi odam, jamiyat, millat va xalq hayotida hech narsa bilan o’lchab bo’lmaydigan alohida o’rin tutadi.

...Ma’naviyat – insonni ruhan poklanishi, qalban ulg’ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosini, irodasini baquvvat, iymon – e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg’otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir desak, meningcha tariximiz va bugungi hayotimiz har tomonlama o’z tasdig’ini topib borayotgan haqiqatni yaqqol ifoda etgan bo’lamiz”

I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat - engilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. – B. 19-20.

Kitob bilan ishlashning yuqorida bayon qilingan materiallaridan ayrim predmetlarni mustaqil o'rganish jarayonida hamda seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish jarayonida foydalanish mumkin.

Seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish:

Seminar mashg'ulotlarining maqsadi: talabaga predmetni o'rganishni chuqurlashtirishda, individual ishda qiyin o'zlashtiriladigan qoida (jihat) larni tushunib olishda uni mustaqil fikrlashga o'rgatish, tahlil qilish va materialga tanqidiy yondashishga yordamlashishdan iborat.

Seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rayotib talaba qator manbalar bilan ishlashiga to'g'ri keladi.

Buni mavzu savollari yozilgan alohida sahifalarga qilish qulayroq bo'ladi. Birinchi manbalarni o'qish jarayonida har bir savol qarshisiga mazmuni bo'yicha zarur material bo'lgan kitobni ko'rsatish barobarida uning asosiy qoida (jihat) lari yoziladi. Ana shunday ko'rsatkich butun

mavzu bo'yicha tuziladi va kitobxon uchun spravochnik (ma'lumotnoma) bo'lib xizmat qiladi.

Mavzu mazmuni bo'yicha yozuvlar tuzilgandan keyin ish tugallangan deb hisoblash mumkin emas. Har bir yozuv manbalarda materialni joylashish tartibi bo'yicha rasmiylashtirilgan, biroq turli manbalardan olingan ko'chirmalar tarqoq (bir-biri bilan bog'lanmagan). Endi ularni mavzuning har bir savoliga aniq va to'liq javob olish uchun jamlash, ma'lum tizimga keltirish talab qilinadi. Biroq bu bir necha manbalarni o'rganib seminar mashg'ulotlariga tayyorlanishga yagona metod emas.

Kartochkalarga yozib olish shu tizimini tafsiya qilish mumkin. Mazkur yozuvlar mavzu rejasi savollari bo'yicha keyinchalik guruhlanadi va matn yoki seminarlarda gapirish rejasi tuziladi. Mazkur reja predmet mavzusi bo'yicha seminar mashg'ulotlari rejasiga muvofiq bo'lishi lozim.

Mabodo seminar mashg'ulotlari mavzusiga o'qituvchi tomonidan reja berilmasa, u holda buni tuzish murakkab ish bo'ladi. Bu holda ma'ruza katta yordam ko'rsatadi. Undan foydalanib mavzuning asosiy savollarini belgilash mumkin. O'rganilayotgan predmet dasturidan ham foydalanish o'rinli hisoblanadi.

Seminarga tayyorgarlik ko'rishda manbalarni tez-tez qayta o'rganishga to'g'ri keladi. Bunda hammasini bilishdan, bir narsani o'ziga ha deb (zo'r berib) takrorlash shart emas, o'z bilimlarini chuqulashtirish va kengaytirishga intilish zarur. Manba bilan birlamchi tanishishda material malum unga tushinarli daraja idrok qilinadi va o'zlashtiriladi. Fanlar o'qishda esa maskur darani ochishi zarur, chunki talaba o'rganadigan savol bo'yicha malum bo'limlarni egallagan va ushbu savolni to'liqroq va har taraflama qarashi kerak. Takror o'qish matni bo'yicha mavjud yozuvlarni kuzatish birga olib berilishi kerak. Ushbu yozuvlar yangi savollarni poydo bo'lishi munosabti bilan to'ldirilishi va tugalanishi mumkin.

Ushbu ko'rinishdagi material o'zlashtirilganda seminar mashg'ulotlariga faol tayyorgarlik ko'rish mumkin. Buning uchun mavzu ishi har bir savoliga javob rejasi o'ylab chiqiladi, havolalardan, asosiy muammolardan, misollardan, raqamlardan qaysi biridan foydalanish birma-bir yodga olinadi.

Seminar mashg'ulotlarida talabalarning javoblari faktlar, ko'chirmalar, dalil-isbotlar bilan asoslanishi lozim. Dolzarb ko'chirmalarni yodlash durust bo'lar, bu esa ushbu qo'llanmani o'z ichiga olgan material qismini yaxshiroq mustahkamlashga xizmat qiladi.

Seminar mashg'ulotlarida javob berishda turli manbalardan kitoblar, ma'ruzachi so'zlaridan va o'zingizning shaxsiy tajribangizdan olgan barcha bilimlaringizni safarbar qilish lozim.

Oliy maktab fanlari bo'yicha o'qish dasturi materialini o'rganishi faqat ishlash bilan chegaralanmaydi. Talabalar o'qituvchilarining ma'ruza, og'zaki maslahat, taqdim etilgan ishga ko'rinishdagi rahbarlik va yordamchidan oqilona foydalanishlari lozim.

Mazkur yordam talabning mustaqil ishini sezilarli darajada oshirilishida va uning diqqatini eng muhim momentlarda to'plashga yordam beradi.

Ma'ruzalarda mavzuning asosiy mazmunini yoritiladi va tahlil qilinadi hamda undagi eng qiyin savollar ko'rsatiladi, mavzuni egallashga qanday yondashuv lozimligi, qanday xulosalar chiqarish mumkinligi, kerakli adabiyotlar tavsiya etiladi. Kitob ustida ishlab seminarga tayyorgarlik ko'rish jarayonida ma'ruzali materiallarni ko'zdan kechirish joyiz.

AMALIY VA LABORATORIYA MASHG'ULOTLARI

Amaliy mashg'ulotlar.

Asosiy nazariy fanlarni o'rganish, odatda auditoriyalarda o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar orqali amalga oshiriladi. Amaliy mashg'ulotlarning vazifasi-amaliy masalalarni yechishning eng yaxshi metodlariga talabalarni ketma-ket o'rgatib borish, ularda nazariyani qo'llashning dastlabki ko'nikmalarini yaratishdan iborat. Amaliy mashg'ulotlar o'rganilayotgan predmet bilan paralel ravishda olib boriladi; ularni, odatda, ma'ruzachi emas boshqa o'qituvchilar o'tkazadilar. Odatda, talabalarga nisbatan nazariyaning asosiy holatlarini qo'llashni talab qiladigan oddiy masalalarni yechish taqdim etiladi. Talabalarning tayyorgarlik darajasi va masalalarning murakkabligiga bog'liq ravishda ular doskada o'qituvchi rahbarligida talaba yoki barcha talabalar tomonidan yechish mumkin. O'qituvchi o'xshash masalalarni uyda yechish uchun talabalarga taqdim etadi. Odatda, amaliy mashg'ulotlar kichik kurslarga mo'ljallangan bo'lib, ular yuqori kurslarda kamroq bo'ladi.

Amaliy mashg'ulotlar samaradorligining birinchi sharti nazariya bilan oldindan tanishish hisoblanadi. Masalan, matn (konspekt) dan tegishli yozuvlarni o'qish. Taqdim etilgan masalani yechish barobarida talaba faqat to'g'ri javob topishga intilmasdan, balki uxshash vazifalarni yechishning umumiy metodini o'zlashtirishi lozim. Ayni shunga asosiy e'tiborni qaratish kerak. Masala yechishni uning shartini diqqat bilan tanishishdan hamda yechim qanday qonun va qoidalarga asoslanishini namoyon qilishdan boshlanib, so'ngra harakatlar umumiy ketma-ketligi belgilanadi. Masala mustaqil yechish uchun taqdim qilingan bo'lsa, u holda o'xshash masalalarni yechish metodi bilan imkon darajasida to'liqroq tanishish lozim.

O'qituvchi rahbarligida o'tkazilgan amaliy mashg'ulotlarda yechilgan masalalar bo'yicha o'z yozuvlaringizni hamda darslik, to'plamlarda berilgan masalalar tahlili misollarini qarab chizish zarur. Ko'p hollarda talabalar masala shartini yozib olib, birdaniga formulalarni yozib olib ma'lumot (raqam, belgi) larni qo'yaboshlaydilar. Bu noto'g'ri.

Masalani yechishning butun yo'lini oldin ko'z oldiga keltirib, shundan so'ng hisoblashni boshlash kerak. Talabalar ko'pincha matematika (yoki fizika yoki kimyo) ning tegishli bo'limlarini takrorlashlari zarur bo'ladi. Bunday chekinish pirovard natijada vaqtdan yutishga olib keladi. Amaliyot uchun hisoblashdagi xato nazariyani bilmaganlik uchunmi yoki sodir bo'lishimi farqi yo'q. Shu bois barcha hisoblashlarni juda ehtiyotkorlik bilan olib borish lozim.

Amaliy mashg'ulotlarda ishni osonlashtiradigan hisoblash metodikasini namoyon qiladigan va ta'kidlaydigan yechish yo'lini oson tekshirish va xatolarini aniqlashga imkon beradigan hisoblashlarni yozib borishni

o'rganish zarur. Diqqatni ayniqsa raqam (belgi) larni aniq yozishga qaratish zarur. Barcha hisoblashlarni masala yechimi olib borilayotgan daftarning o'ziga yozib borish kerak. Spravornik (ma'lumotnoma) va jadvallardan foydalanishni bilish shart chunki bu amaliy ishlarni bajarishni tezlashtiradi va yengillashtiradi. O'z ishingizni tahlil qilganingizda vaqtni tejash niyatida qilingan yozuvdagi ehtiyotkorlik va qat'iy tartibga ziyon keltiradigan talabgarlikni susaytirish natijada vaqtni sezilarli darajada yo'qolishiga va ko'p hollarda barcha hisoblashlar va amallarni takrorlanishidan voqib bo'lasiz.

Talabning o'quv-biluv faoliyatida materialni grafik tarzda taqdim etish ko'nikmalarini egallashi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, chizma, grafik, diagrammalar fan va texnikaning ko'rgazmali, tejamli tili hisoblanadi. Masala yechishni grafik shaklda taqdim etishni o'rganish juda muhimdir. Bu qonuniyatlik va o'z vaqtida xatolarini namoyon qilishga, grafik tasavvur murakkab masalalarni yechish yo'lini aytishga va yodda saqlashga yordam beradi.

Laboratoriya mashg'ulotlari

Ma'ruzalarda bayon qilingan nazariy materiallar xotirada mustahkamlanadi va amaliyot bilan ikki yo'l, ya'ni yuqorida bayon qilingan amaliy mashg'ulotlar va laboratoriyada ishlash orqali bog'lanadi. Amaliy mashg'ulotlar birmuncha umumiy harakterga ega bo'lib, ularda qo'llaniladigan qurollar, kitob, qo'llanma, yozuv asbobi, qog'oz hisoblash mashinasi logarifmik lineyka va h.k. hisoblanadi. Laboratoriya mashg'ulotlarida esa asbob uskuna, jihoz, o'lchash asboblari bilan ishlashga ma'ruzada bayon qilingan hodisalarni qayta tiklash, kuzatish va o'rganishga to'g'ri keradi. Shu bois jihozlarni sozlash va rostlash, uning ish rejasini belgilash, ko'rsatkichlarini o'lchash, parametrlarining o'zaro bog'liqligini va jarayonlarini berish qonuniyatlarini aniqlash ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak.

Eksperimental malakalar o'quv laboratoriyalarida egallanib, u bo'lajak ilmiy tadqiqotchi, ilmiy xodim uchun ham umumiy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarini o'qituvchi pedagog (fizika, kimyo, mehnat ta'limi, matematika o'qituvchi)lari uchun ham muhim hisoblanadi. Auditoriyada odatda, hodisalar majmui bilan ish ko'rishga to'g'ri kelib, ba'zi hollarda tafsilotlar va tasodifiy hollarning sezilarli darajada rol o'ynashi tufayli haqiqiy manzarani buzilishi jarayoni nazariya bo'yicha kutilgan yo'nalishdan emas, boshqa yo'nalishdan ketishi eksperiment natijalari hisoblanilib, tushuntirib bo'lmaydigan bo'lib qolishi mumkin. Murakkab hodisalarni tekshirib, muhokama qilishni o'rganish; o'zida kuzatuvchanlikni, tajribani bir necha bor, uni o'tkazish sharoitini o'zgartirib takrorlash qobiliyatini; yangi hodisalarni ajratish va yodda tutish.

O'lchash ishlarini qo'yishda topqirlikka va sabrlilikni, oxirgi o'lcham natijalarini olishda tirishqoqlik va qat'iyatlilikni tarbiyalash kerak.

Laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishda sezilarli darajada qiyinchiliklarga duch kelish mumkin. Mazkur mashg'ulotlar aniq nazariy

fanlar bilan bog'liq. Ularni fanlarni o'rganish jarayoni bilan paralel ravishda "Frontal metod" deb ataladigan usul bilan olib borsa bo'ladi. Biroq, bu kerakli miqdordagi asbob-uskunalar laboratoriya va joylarning yetishmasligi tufayli juda kam amalga oshiriladi. Laboratoriya mashg'ulotlarini fanni o'rganib bo'lgandan keyin ham o'tkazish mumkin, ammo mashg'ulotlarni bunday tashkil etishni o'quv rejaga sig'dirib bo'lmaydi.

Shu bois ba'zi hollarda laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish nazariy kursning tegishli bo'limlarini bayon qilishdan oldin o'tkaziladi. Talabada tayorgarsizlik tadqiqotni mexanik ravishda takrorlash vasvasasi tug'ilishi mumkin, bu uch hissa zarar keltiradi, ya'ni vaqt bekorga ketadi, tayyorgarlikda susayishga, pasayishga sharoit yaratadi; o'z- o'zini intizomga bo'ysindirishini buzadi. Vaholanki, nazariya bilan ilk tanishishga nisbatan katta bo'lmagan zo'r berish laboratoriyani oldin utkazishining yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklariga barham beradi. Ishning mustaqilligi zo'rayib talaba guyo o'zini tadqiqotchi o'rniga qo'yadi. Tajribada olingan natijalar va nazariyani keyingi o'qish bilim va malakalarni mustahkamlashga ko'maklashadi. O'quv laboratoriyasining har bir laboratoriya ustanovkasi bir emas, bir necha avlod talabalari o'rgatilishi bois laboratoriya jihozlari tabiiy ravishda eskiradi, yoyiladi. Shu bois tajriba o'tkazishda muvaffaqiyatsizliklar bo'lib turadi. Bu albatta, talabani ranjitadi, ammo ular ham foydali bo'lishi mumkin. Muvaffiqiyatsizlik sabablarini izlashga sxemalarning kontaktlarning izolatsiyaning holati bo'yicha tekshirish o'tkazishga to'g'ri keladi. Bularning barchasi talabalarda tajriba o'tkazish malakasini shakillantirishga ko'maklashadi.

Odatda laboratoriya ishini talabalar brigada-brigada bo'lib bajarishadilar. Murakkab tadqiqotlarda ana shunday metod yagona va samarali bo'lib, bunda kuzatuvlar bir necha joyda olib boriladi. Brigadalarning faol a'zolari tashabbusni qo'lga olib, ulash (birlashtirish)larni amalga oshiradilar, yozuvlarni olib boradilar, passivlar esa ish ustida emas olingan natijalarni yozish bilan chegaralanadilar, xolos. Ular laboratoriya mashg'ulotlaridan foyda olmaydilar. Har bir ishda o'zini safarbar qilish va undan berishi mumkin bo'lgan jami ahamiyatli muhim narsalarni olish uchun har bir talabaga qat'iyatlik bilan maslahat beramiz. Buning asosiy shartlaridan biri bu ishga oldindan tayyorgarlik ko'rish: nazariya bilan tanishish va uni bayoni bilan ishni qo'yish, keyinchalik esa uni o'tkazishda bevosita faol ishtirok etish hisoblanadi.

Laboratoriya ishlarini bajarish va hisobot tayyorlash.

Laboratoriya ishini bajarishga tayyorgarlik ko'rish laboratoriya o'tkaziladigan soatlarda emas, balki ancha oldin boshlanishi lozim. Laboratoriya ishlarining yozma matni talabalarga yoki o'quv zalida yoki kafedrada yoki uyga bajarish uchun beriladi. Talaba laboratoriyaga kelishdan oldin, u nima qilishini va qanday qilishini hamda ishni o'tkazish reja va sxemasini taxt qilib qo'yishi, kuzatishlarni yozish uchun jadval shaklini tayyorlashi lozim. Ishga tayyorgarlik ko'rishda odatda nazariy bilimlardagi

kamchiliklari namoyon bo'ldi, bunday holat darslik bo'yicha bilimlardagi kamchiliklarni to'ldirish juda muhim.

Eksperimentni o'tkazishda tajribani to'g'ri o'tkazilganligiga ishonch hosil qilish uchun laboratoriyada bevosita laboratoriya ishlarini bajarishda xulosa, bog'liq, grafiklar va b.q. olishga intilish lozim. Agar o'lchash natijalari faqat jadvalga yozilib borsa, ular asosida tuzilgan grafikda yozilgan nuqtalar soni yetarli bo'lmasligi yoki juda ko'p bo'lishi mumkin. Eng muhim va eng karakterli bo'lgan nuqtalar qoldirib ketilgan bo'lishi mumkin. Jadval bo'yicha hatto tajribali tadqiqotchi ham tajriba qay darajada to'g'ri o'tkazilganligi to'g'risida fikr yurita olmaydi. Grafik bo'yicha esa bunga endigina kirishgan talaba ham qilishi mumkin. Yaxshi tayyorgarlik ko'rilganda va tadqiqotni ongli ravishda o'tkazilganda hisobot tayyorlash murakkab ish emas. Tajriba o'tkazilgandan so'ng hisobot qancha tez tuzilsa, talaba unga shuncha kam mehnat va vaqt sarflaydi. Hisobot o'tkazilgan tajribani faqatgina qayd qilishdan, oddiy bayonnomadan iborat bo'lishi kerak emas. O'tkazilgan ishni tahlil qilish zarur, bunda qanday aniqlik bilan u qaysi qonuniyatlarini tasdiqladi, yoki namoyon qildi, nazariyalar o'rtasidagi munosabatdan chetga chiqish bo'lsa noaniqliklarning sabablari nimadan iborat bo'lganligini ko'rsatish lozim. Laboratoriya mashg'ulotlarining ahamiyatini baholay olmaydigan, ularga formal munosabatda bo'lgan, oldindan tayyorgarlik ko'rmaydigan talabalarning bilimlarida qanchalik bo'lishi muqarrar.

Yozma kurs ishlarni tuzish

Yozma kurs ishining asosiy vazifasi kurs ishi talab etadigan u yoki bu fanning ko'p miqdordagi savollaridan birini chuqur o'rganishdan iborat. Kurs ishi mavzusiga taklif qilinadigan savol mazkur fan tizimida aniq nazariy ahamiyatga ega bo'lishi, uni talabalar tomonidan o'rganishi darslik yoki ma'ruzalarda bayon qilinganlardan ancha keyinroq bo'lishi shart.

Kurs ishiga tayyorgarlik ko'rish va yozish jarayonida talabalarda:

- mustaqil ishlash, ulug' allomalarimiz g'oyalari, ta'limotlari, birinchi Prezident I. A. KARIMOV asarlarida olg'a surilgan fikr-mulohazalarini tabiat va ijtimoiy hayot voqea va jarayonlarga qo'llash ko'nikmasi rivojlanadi.

-birlamchi manbalar bilan ishlash malakalari materialni tanqidiy baholash, mustaqil ravishda xulosalar chiqarish va umumlashtirish ko'nikmasi takomillashadi va mustahkamlanadi;

- mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlarini kuzatish, o'rganish va umumlashtirish ko'nikmasi o'zlashtiriladi, tajribachilik va olingan natijalarni qayta ishlash malakalari rivojlanadi.

-manbalar va adabiyotlarni tanlash, ulardan to'g'ri sitatalar olish bibliografik ma'lumot (spravochnik) lardan foydalanish ko'nikmasi shakllanadi.

-umumilmiy va maxsus atamalardan foydalanib, fikrlarni adabiy bayon qilish malakalari mustahkamlanadi.

Kurs ishini bajarish o'quv jarayonining tarkibiy qismi hisoblanadi. Kurs ishi yil davomidagi mashg'ulotlarga yakun yasaydi. Mustaqil ilmiy-tadqiqot malakalarini shakllantirishga hamda talabalarni diplom ishini yozishga tayyorlaydi. Ko'pgina oliy ta'lim muassasalari amaliyotida talabani qo'shimcha mashg'ulotlari natijasida kurs ishi diplom ishiga aylanadi.

Kurs ishlarining vazifalaridan biri talabalarni asta-sekin ilmiy-tadqiqot ishiga o'rgatish hisoblanadi. Shu boisdan ham kurs ishi mavzulari ham ularni bajarish harakteri ham bilim yo'llari bo'yicha farqlanadi.

Birinci va ikkinchi kurslarda kurs ishi katta yoki kichik referativ harakterda go'yo (o'rta maktabning katta insholarini davom ettirgandek) bo'lsa, uchinchi va to'rtinchi kurslarda borgan sari mustaqil ish elementlari ham materialga ijodiy, tadqiqiy yondashuv kuchayib boradi. Masalan, Samarqand davlat universitetining biologiya fakultetida talabalar kurs ishini uchinchi kursdan boshlab yozishga kirishadilar, va bu yerda referativ harakterdagi ishlar ustuvorlik qiladi; to'rtinchi kursda tez-tez u yoki bu tajriba - eksperiment, tizimli kuzatish bilan bog'liq mavzular beriladi, garchi referativ harakterdagi mavzular ehtimoldan xoli emas.

Kurs ishini bajarish jarayonida xal qilinadigan aniq vazifalar fakultetlar bo'yicha turli-tuman bo'ladi. Masalan, tarix fakultetida talabalarning manbalar va rasmiy hujjatlar bilan ishlashi; filologiya fakultetida adabiy asarlar matnlari ustida; fizika, kimyo, biologiya fakultetlarida - talabalar tomonidan mustaqil olingan eksprementlar natijalari bilan ishlash katta ahamiyat kasb etadi.

Kurs ishlari mavzulari kafedrada tasdiqlanadi va oldindan barvaqt talabalar e'tiboriga havola qilinadi. Talabalar kurs ishlarini kafedra tomonidan tayinlangan ilmiy rahbarlar rahbarliklarida bajaradilar va mavzu ustida ishlari jarayonlarida vujudga kelgan barcha savollar bilan ularga murojaat qiladilar. Fakultetlar va mutaxassisliklarga bog'liq ravishda kurs ishi mavzulari ro'yxatiga juda ko'p savollar kiritiladi, masalan:

TARIX FAKULTETI BO'YICHA

O'zbekiston tarixi kafedrasida. O'zbekiston tarixi fani.

Milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an'analarning shakllanishi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni va uning ahamiyati.

O'zbekistonda ekologik muamollar: yechim va muammolar.

PEDAGOGIKA FAKULTETI

Pedagogika kafedrasida, ("Pedagogika nazariyasi va tarixi" fani)

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni va ta'lim tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari;

O'quvchilarni ekologik tarbiyalash

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi asosida milliy ong, milliy mafkurani shakllantirish

O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash
XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkistonda
maktab va tarbiya.

BOSHLANG'ICH TA'LIM METODIKASI KAFEDRASI

Matematika. Matematika o'qitish metodikasi.

Boshlang'ich sinflarda masalalar yechishda tenglamalardan foydalanish
usullari.

Sonlar nazariyasini o'rganishda boshlang'ich sinf matematikasining o'rni.

Boshlang'ich sinflarda masala yechish jarayonida o'quvchilarni
 mantiqiy fikrlashga o'rgatish.

Bo'linish nazariyasi elementlari va ularning boshlang'ich matematika
kursidagi ahamiyati.

ONA TILI. ONA TILI O'QITISH METODIKASI

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni bayon yozishga tayyorlash orqali
ularning xotirasini shakllantirish.

Ona tili darslarida "Fe'l" so'z turkumini o'qitishda o'quvchilar faolligini
oshirish yo'llari.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash

PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

Xotira va tafakkur haqida P.P. Blonskiy ta'limoti.

Psixologiyada anketa metodi orqali ma'lumot olish.

Hissiy kechinmalarning shakllari.

IQTISODIYOT FAKULTETI

Iqtisodiyot nazariyasi kafedrası. Iqtisodiyot nazariyasi fani.

O'zbekistonda banklar tuzilishi, bank ishi va bankiy foyda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etish va uning
iqtisodiy munosabatlar tizimidagi o'rni va roli.

O'zbekistonda kredit munosabatlari va garov.

AMALIY MATEMATIKA FAKULTETI.

Optimal boshqaruv usullari kafedrası.

KURS ISHLARI.

"Kombinatorika va graflar nazariyasi" fani.

Graflar nazariyasi algoritmlari.

Xonkraft- Karn algoritimi.

Graflarni bo'lish masalalari va ularning tadbiqu.

Kombinator obyektlarni saralash.

Taqqoslash bilan saralash algoritmlarini baholash.

KIMYO FAKULTETI.

Fizikaviy kimyo kafedrasining talabalarining kurs ishlari mavzulari.

1. Galvanik elementlar elektr yurituvchi kuch va uni o'lchash usullari.
2. Bufer eritmalari pH ni elektrokimyoviy usulda aniqlash.
3. Qiyin eruvchan tuzlarning eruvchanligini elektr o'tkazuvchanlik bilan aniqlash.

BIOLOGIYA FAKULTETI.

Zoologiya kafedrasini.

1. Hashoratlarning tabiatda va inson hayotidagi ahamiyati.
2. Sinantrop hashoratlarning va ularning tibbiyotdagi ahamiyati.
3. Qushlarning ekologiyasi.

Botanika va o'simliklar fiziologiyasi kafedrasini.

O'simliklarning jinsiy ko'payishi.

Ko'k-yashil suv o't toifalar bo'limi.

Suv o'tlar va yuksak o'simliklar. Yuksak o'simliklarning kelib chiqishi haqidagi gipotezalar.

FIZIKA FAKULTETI.

Qattiq jismlar fizikasi kafedrasini.

"Yarim o'tkazgichlar fizikasi" fanidan kurs ishlari mavzulari.

Yarim o'tkazgichlarni o'stirish usullari.

Yarim o'tkazgichlarda elektron – fonon o'zaro ta'siri.

Yarim o'tkazgichlarda chuqur energitik sath hosil qiladigan aralashmalar.

Kuchli bog'lanish yaqinlashuvida yarim o'tkazgichlar zonasini o'rganish.

UMUMIY FIZIKA KAFEDRASI

1. Temir guruhi metallari asosida magniy suyuqliklarning elektr o'tkazuvchanligini xona temperaturasida o'lchash.
2. Disproziy – indiy sistemasi birikmalarining kinetik va magniy xossalari o'rganish.
3. Kadmiy va skandiy monokristallari Xoll Koifitsienti va Fermi sirti anizotropiyasining temperaturaga bog'liqligini o'rganish.

FIZIKA O'QITISH METODIKASI FANI.

1. Fizikadan amaliy (masala yechish) mashg'ulotlarini tashkil etish uslubiyati.
2. Umumta'lim maktablarida fizika darslarida sinergetik tushunchalarini kiritish metodikasi.
3. Fizika o'qitishda politexnik ta'lim va kasb tanlash.

Kurs ishini bajarish jarayonida talaba:

-mavzu tanlashi

-mavzuni o'rganish va bayon qilish rejasini tuzish;

- adabiyot va manbalarni aniqlashi;
- adabiyotni o'rganishi va mavzuni yoritish uchun material jamlashi;
- jamlangan materialni tizimlashtirishi va uni adabiy rasmiylashtirishi lozim.

Kurs ishi mavzusini tanlash uni muvaffaqiyatli bajarishning muhim momenti va sharti hisoblanadi. Bunda shoshma-shosharlik bo'lmaslik va ilmiy va ma'naviy-siyosiy dolzarbligini hisobga olish, adabiyotlar va manbalarning mavjudligini, talabning shaxsiy qiziqishlar va moyilliklarini yoki mavzu mazmunini talabning bo'lajak faoliyati bilan aloqasini hisobga olish zarur.

Kafedra tavsiya etgan mavzular bilan bir qatorda talabalarga mustaqil ravishda mavzularni shakillantirishga ruxsat beriladi, biroq ushbu mavzular kafedrada tasdiqlanishi lozim.

Mavzuni tanlab, uning o'rganishni va yozishni dastlabki reja variantini o'ylash va tuzish zarur. Shu munosabat bilan dastlabki tuzilgan reja adabiyotlar tanlash va material jamlash bo'yicha barcha keyingi ishga ma'lum maqsadga qaratilganlikni beradi.

Rejaning dastlabki varianti tanlangan mavzuga bog'liq ravishda turli darajada aniqlikka ega bo'lishi mumkin. Biroq unda quydagilar, albatta, bo'lishi lozim:

- mavzuni tanlash motivni va uning ahamiyatini asoslagan kirish;
- yoritilishi lozim bo'lgan asosiy masalalar, muallifning xulosalarini o'z ichiga olgan yakuniy qism.

-kurs ishi rejasi tasdiqlash uchun ilmiy rahbarga taqdim etiladi.

Kurs ishi mavzusi tanlangandan va kafedrada tasdiqlangandan, uni o'rganish va yoritishdan keyin adabiyotlar va manbalarni tanlash bilan sinchikovlik bilan shug'ullanish lozim, ya'ni mazkur savol vatani matbuotida qay darajada yoritilganligini, qaysi faktlar, materiallar, hujjatlar ushbu savolni yanada atroflicha, to'liq yoritishga yordam berishi mumkinligini namoyon qilishini aniqlash zarur.

Ba'zi hollarda kurs ishi mavzusi bo'yicha qo'llanmalar mavzular ro'yxati bilan kafedra tomonidan beriladi. Ko'p hollarda talaba tanlagan mavzu bo'yicha qo'llanma haqida umumiy ko'rsatmalar mavzu tasdiqlangandan so'ng ilmiy rahbar tomonidan beriladi.

Biroq, rahbarning ko'rsatmalari hamma vaqt umumiy karakterda bo'ladi va faqat asosiy asarlar va materialga tegishli bo'ladi. Eng ko'p, to'liq adabiyotlar va manbalar (bibliografiyalar) ni tuzish talabning mustaqil ishi hisoblanadi va bu ish ma'lum tirishqoqlik va malakalarni talab qiladi.

Kurs ishining to'liq bibliografiyasini tuzish uchun talaba foydalanishi lozim:

- biblografik ro'yxatlar hamda bibliografik havolalar, tanlangan mavzu bo'yicha darsliklardan va boshqa umumiy asarlardan va manografiyalardan dalil keltirish;

-kutubxonalar katologlari va bibliografik nashriyotlar: “Kitob solnomasi” “Jurnal maqolalari solnomasi”, “Gazeta maqolalar solnomasi” va h.k.

Bibliografiyani tuzishda eng avvalo kurs ishi mavzusiga tegishli ulug’ mutafakkirning asarlari, O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I. A. Karimov, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning asarlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, so‘ngra maxsus tadqiqot (monografiya) lar, jurnal va gazeta maqolalar va h.k. namoyon qilinishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tasarrufida chop etiladigan. “O‘zbekiston biologiya”, “O‘zbekiston matematika”, “O‘zbekiston ijtimoiy fanlar”, “O‘zbekiston tarixi”, “Mexanika muammolari”, “O‘zbekiston ximiya”, “O‘zbekiston Fanlar akademiyasining xabarlari, fizika-matematika seriyasi”, “O‘zbekiston Fanlar akademiyasining xabarlari, texnika seriyasi”, “O‘zbekiston Fanlar akademiyasining ma’ruzalari”, “O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi” va boshqa jurnallarda chop etilgan maqolalarni bilish va qollash g’oyatda muhimdir.

“Ta’lim” yo‘nalishidagi bakalavriatlar O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vazirligi hamda Oliy va o‘rta-maxsus ta’lim vazirligi tasarrufidagi “Xalq ta’limi”, “Boshlang‘ich ta’lim”, “Maktab va hayot”, “Ta’lim menejmenti”, “Fizika, Matematika va informatika”, “O‘zbek tili va adabiyoti”, “Oliy ta’lim muammolari”, “Kasb-hunar ta’limi”, Oliy ta’lim muassasalarida nashr etiladigan “Pedagogik mahorat”, “Pedagogik ta’lim”, “Psixologiya”, kabi jurnallar hamda turli muammolarga bag‘ishlangan Respublika va Xalqaro ko‘lamda o‘tkaziladigan konferensiya materiallaridan foydalanish asqotadi.

Maxsus adabiyotda fanning eng so‘nggi yutuqlarini yorituvchi va umumlashtiruvchilari tanlab olinadi. Mavzu ustida ishlash uchun tanlangan adabiyotlar va manbalar ro‘yxati ham ilmiy rahbar tomonidan tasdiqlanadi va to‘lig‘icha kurs ishi oxirida ko‘rsatiladi.

Adabiyotlar va manbalarni qanday o‘qish va matnlashtirish yuqorida bayon qilingan. Bu erda biz kurs ishini yozish uchun adabiyot va manbalarni o‘rganishda bibliografik ro‘yxatga kiritilgan qo‘llanmalardan mavzuga oidlarini o‘qish va matnlashtirish lozimligini ta’kidlamoqchimiz.

Bibliografiya tuzilgandan keyin adabiyotlar va manbalarni o‘qiganda va matnlashtirganda birinchidan, kurs ishining bo‘lim (boblari yoki paragraflari) bo‘yicha ko‘chirma, qayd, yozma faktlarni darhol guruhlash, ularni tahlal alohida papkaga joylash, bunda u rejani qaysi punktiga tegishli ekanligini yozib qo‘yish, ikkinchidan, adabiyotlarni to‘planish jarayonida kurs ishi rejasining qaysi bo‘limi qanday darajada ta‘minlangani va qaysi bir bo‘limi uchun qo‘shimcha izlanishlar, qo‘shimcha o‘qishlar yoki yetmaydigan faktlarni tanlash zarurligiga e‘tibor berib borish kerak.

Shunday qilib, oldindan tuzilgan kurs ishi rejasini bir tomondan o‘z-o‘zini nazorat qilishni yengillashtiradi, ikkinchi tomondan masala (savol) ni har tomonlama o‘rganishni ta‘minlaydi.

Belgilangan asosiy adabiyot o'qilgan va matnlashtirilgan, zarur adabiyotlar to'plangan keyin uni yakuniy tizimlashtirishga va adabiyot rasmiylashtirishga kirishish mumkin.

To'plangan materialni oxirgi tizimlashtirishda shunday hollar bo'lishi mumkin, qachonki:

- rejani ayrim bob (bo'lim)lar bo'yicha materiallar shunday ko'pki va ular shunday turli-tumanki, ushbu bob (bo'limlarni) mustaqil bob (bo'lim)ga yoki alohida birmuncha mustaqil paragriflarga bo'lish talab etiladi;

-u yoki bu bo'lish bo'yicha material shunday kamki, uni mustaqil bo'lim (bob)ga ajratish maqsadga muvofiq emas, uni mustaqil paragrif sifatida boshqa biror bo'lim (bob)ga qo'shish yaxshiroq.

Demak, dastlab tuzilgan kurs ishi rejasiga ko'r-ko'rona ishonish kerak emas. Reja ishga yordam berishi, shuki mazmunli va mantiqli bo'lishi va talab etilganda ishni yakuniy rasmiylashtirishda rejani o'zgartirish mumkin va kerak.

Adabiy rasmiylashtirish, ish uslubi to'liq mustaqil bo'lishi lozim. Eng zarur sitatalardan tashqari barcha matn o'z tilingizda bayon qilinishi kerak. Sitatalar qo'shtirnoq ichiga olinadi va bibliografiyada ko'rsatilgan asarga yoki manbaga ilova qilinadi.

Bayon qilish uslubiga kelganda shuni ko'zda tutish kerakki, u faqat diqqat bilan ishlash natijasida amaliyotda shakllanadi. Shu bois to'g'ri (xatosiz) yaxshi kurs ishini bir lahzada, "bir o'tirishda" yozish mumkin deb o'ylash aslo mumkin emas.

Teskari, yaxshi ish faqat matn bir necha bor qayta o'qish, to'g'rilash, barcha matn bo'lmasa ham ko'pchilik bo'limlar, satr (xat) boshi, ifodalarni ko'chirish hamda lug'at tarkibi va ayrim jumlar ustida jiddiy ishlash natijasida yuzaga keladi.

Kurs ishi matnning haddan tashqari tez-tez kerakmas xorijiy va alohida spesitik (o'ziga xos) so'zlardan foydalanib hamda uzun, murakkab va chala-cho'lpa gaplar bilan iflos qilish mumkin emas.

Biroq, xorijiy tabiatga ega bo'lgan, o'zbek tiliga mustahkam kirib kelgan ilmiy, siyosiy va texnik lug'atlardan materialdan foydalanishni inkor etmaydi.

Kurs ishi kompyuterda yozilib (20- 25 sahifa) yoki qog'ozning bir tomoniga hoshiya qoldirib, qo'lda aniq yozilgan xat (40- 45 sahifa) ozoda rasmiylashtirilgan ko'rinishda muallif mavzu , fakultet kurs va guruhni ko'rsatgan holda kafedraga topshiriladi.

Ushbu bo'limda qo'yilgan talablarga javob bermaydigan ishlar talabalardan qabul qilinmaydi va baholanmaydi.

Talabalar tomonidan topshirilgan kurs ishi maxsus tayinlangan taqrizchi tomonida o'qiladi va uning ijobiy taqrizidan so'ng himoya tayinlanadi, unda barcha xohlovchilar ishtirok etishi mumkin.

Kurs ishlari yoki kafedrada yoki ushbu maqsad uchun kafedra ajratgan komissiyada himoya qilinadi, himoya davrida talaba ish mazmuni

va qilingan xulosalarni qisqacha bayon qiladi. Keyin ilmiy rahbar xulosasi va taqrizchilarning taqrizi o'qib eshittiriladi.

Himoyada qatnashganlar savollar berishlari va o'z fikr- mulohazalarni bildirishlari mumkin. Talaba himoyada aytilgan barcha fikr- mulohaza va savollarga javob berishga majbur.

Kurs ishlari oliy ta'lim muassasida qabul qilingan barcha tizimi yordamida baholanadi. Baho mavzuni to'liq bayon qilinishiga, savollarni to'g'ri yoritilishiga, foydalanilgan manbalar soni va sifatiga hamda savodxonligiga bog'liq.

Baho talabaning reyting daftarchasiga kiritiladi.

Kurs ishi qoniqarsiz deb topilganda talaba belgilangan muddatda u yoki bu yangi mavzu bo'yicha kurs ishini taqdim qilishi lozim. Kurs ishlarini taqdim etmagan talabalar navbatdagi mashg'ulotlar va nazoratlarga qo'yilmaydi.

Yuqorida bayon qilinganlardan ko'rinadiki, mukammal kurs ishini yozish uchun talaba g'ayrat bilan ko'p mehnat qilishi va mulohaza qilishi lozim.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, talabalarning o'quv- biluv faoliyatidagi eng yomon narsa, ularning tayyor qoida, shiorlardan foydalanishga intilishlaridir.

Bu, albatta, oson aqliy zo'riqishni talab qilmaydi.

Bu teskari yoki bu nazariy qoidani mustaqil ravishda o'z so'zingiz bilan ifodalamoqchi bo'lsangiz, siz uni yaxshilab o'ylashingiz, tushunib olishingizga to'g'ri keladi.

Yod olgan qoidalar bilan gapirganingizda fikringiz, tafakkuringiz ishlamaydi, u uyg'oq bo'lmaydi.

Shu bois ta'lim olishning birinchi va eng muhim sharti o'rganilayotgan fanning masalalarini chuqur o'rganish va tushunishdan iborat ekanligini yoddan chiqarmang.

YOZMA MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Kurs ishi mavzulari kabi malakaviy bitiruv ishi mavzulari ham nafaqat fakultetlar, balki har bir fakultet kafedralar bo'yicha ham turli-tuman bo'ladi. Misol sifatida Samarqand davlat universiteti fakultet va kafedralari bo'yicha o'z vaqtida talabalarga taqdim etilgan malakaviy bitiruv ishlar mavzularidan namunalar keltiramiz.

TARIX FAKULTETI

O'zbekistonda manaviy-ruhiy poklanish. Milliy qadriyatlarning tiklanishi.

Orol fojiasi va uning kelib chiqish sabablari.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlari jadid maktablarining faoliyati.

PEDAGOGIKA FAKULTETI

Sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni tabiatni muhofaza qilish ruhida tarbiyalash.

Tabiiy - matematika darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarni ta'limiy qadriyatlar bilan tanishtirish orqali ma'naviy tarbiyalash.

Maktabda jadidchilik harakati namoyondalari faoliyatini o'rganish orqali o'quvchilarda milliy g'ururni shakllantirish.

Milliy dastur talablari asosida boshlang'ich ta'limni modernizatsiyalash.

Sharq mutafakkirlari barkamol avlod tarbiyasi haqida.

O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash.

Ta'limning interfaol usullari.

Abu Ali Ibn Sino ning pedagogik qarashlari.

Amir Temurning ta'lim- tarbiyada tutgan o'rnini.

Alisher Navoiyning ta'limiy- axloqiy qarashlari.

Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari.

BOSHLANG'ICH TA'LIM METODIKASI KAFEDRASI

Boshlang'ich sinf matematika darslarida algebra elementlarini o'rganishning interfaol usullari.

Boshlang'ich ta'lim matematikasida iqtisodiy tarbiyani amalga oshirish yo'llari.

Boshlang'ich matematika ta'lim jarayonida o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalash.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash.

ONA TILI. ONA TILI O'QITISH METODIKASI

Hikoya modulini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish.

Boshlang'ich sinflarda ikkinchi darajali bo'laklarni o'rgatishda interfaol ta'lim usullaridan foydalanish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish omillari.

PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

Jamoaviy konfliktlar va ularning psixologik tahlili.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'qish motivlarini shakillantirish mexanizmlari.

Etnopsixologiya darslarida etnologiyadan foydalanish.

IQTISODIYOT FAKULTETI

O'zbekistonda bank tizimi va uning mikroiqtisodiy rivojlanishidagi o'rni.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari.

Iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirishda tijorat banklari kreditlarining roli.

IQTISODIYOT KAFEDRASI.

Aholi bandligini oshirishda modernizatsiyalashning ahamiyati.

Sanoat ishlab chiqarishida xususiy korxonalarni rivojlantirish istiqbollari.

Milliy iqtisodiyotda jalb etish yo'llari va istiqboli. (Samarqand viloyati misolida).

Samarqand viloyatida aholini turmush darajasini oshirish yo'llari.

Samarqand viloyatida aholi daromadlarini oshirish yo'llari.

AMALIY MATEMATIKA FAKULTETI.

OPTIMAL BOSHQARUV USULLARI KAFEDRASI.

Boshqaruv masalalarini yechishda silliqmas funksiyalarni minimallashtirish algoritmi va dasturiy ta'minoti.

Bir ommaviy xizmat ko'rsatish tizimlari uchun dasturiy ta'limot.

Umumta'lim maktablarida informatikani o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim metodikasi.

KIMYO FAKULTETI.

1. Rayhon o'simligini ultratovush yordamida qizdirish usulida olingan efir moyining GX-MS tahlili.

2. Qahrabo kislota bilan gomoveratilamin o'rtasida boradigan reaksiyani kvant kimyoviy o'rganish.

3. Metanni aromatlash reaksiyalarining kinetik qonuniyatlari.

BIOLOGIYA FAKULTETI.

Zoologiya kafedrası.

Zarafshon qo'riqxonasida tarqalgan Syrphidae va Tachinidae oilasiga oid pashshalarning faunasi va biologik xususiyatlari.

Leyshmanioz kasalligini tarqalishida qon soʻruvchi iskaptoparlar (moskitlar) ning roli.

Buxoro chittagi (Parus boscharensis L)ning uyalash biologiyasi va ahamiyati.

BOTANIKA VA OʻSIMLIKLAR FIZIOLOGIYASI KAFEDRASI.

Samarqand viloyati suv havzalari algoflorasi.

Madaniy daraxt va butalarni vegetativ koʻpayishi.

Samarqand viloyatining noyob muhofazaga muhtoj oʻsimliklari.

Omonqoʻton lolasining baʼzi biologik xususiyatlari.

FIZIKA FAKULTETI

Yarim oʻtkazgichli materiallarning oʻtkazuvchanlik usuli bilan aniqlash oʻquv laboratoriya ishini yaratish.

Yarim oʻtkazgichli tuzilmalarda roʻy beradigan noxiziqli jarayonlarni tahlil qilishda hisobiy tajribadan foydalanish.

Fotonikada ishlatiladigan shishalarda ion oʻtkazuvchanlik tabiatini oʻrganish.

Malakaviy bitiruv ishi yuqori malakaviy mutaxassis tayyorlashni yakunlashining shakllaridan biri boʻlib xizmat qiladi: malakaviy bitiruv ishining himoyasi davlat atestatsiyasi nazoratining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Malakaviy bitiruv ishi mavzusini ishlab chiqish va yoritishda talaba tegishli fan sohasi boʻyicha bilimlarini kengaytiradi, chuqurlashtiradi va mustahkamlaydi;

-oʻz mutaxassisligi boʻyicha savollarni mustaqil hal qilish koʻnikma va malakalarni egallaydi va mustahkamlaydi;

- ilmiy izlanish metodikasi asoslarini oʻzlashtiradi;

-ilmiy mehnatning shaxsiy madaniyati va texnikasini rivojlantiradi.

Kurs ishi talabaning yillik oʻquv mashgʻulotlariga yakun yasasa malakaviy bitiruv ishi esa oliy taʼlim muassasasida butun taʼlim jarayoni davrini tugallaydi va mustaqil ilmiy izlanishning boshlanishi yoki birinchi qadam boʻlib xizmat qiladi.

Malakaviy bitiruv ishini yozishga talaba maʼlum darajada mustaqil ilmiy mehnat koʻnikma va malakalari bilan qurollangan holda kirishadi.

Kurs ishini bajargandan keyin u sitata olish qoidalarini kartotekalar, katologlar, koʻrsatkichlar, bibliografik, spravochnik (maʼlumotnoma) ensiklopediyasi, kitob yilnomalar matn ostidagi izoh, havoladan foydalanishni biladi; kimyo, biologiya, fizika fakultetlarida va boshqa fakultetlarda zarur jihozlar, instrumentlar, asboblarni, preparatlardan foydalaniladi; shu bois u koʻp darajada oʻz vaqtini atrofda hayotdan aniq materialni namoyon qilish, ajratish va toʻplashga hamda uni ilmiy umumlashtirishga bogʻlashi mumkin.

Malakaviy bitiruv ishini yozishda nafaqat manbalar va turli-tuman chop etilgan adabiyotlarni atroflicha oʻrganishni, balki psixolog va pedagoglarning maktab, kasb-hunar kollejini va mehribonlik uylaridagi

laboratoriyalarda; biologlarning o‘simlikshunoslik va chorvachilik, yerga ishlov berish bo‘yicha; kimyogarlarning laboratoriyalarda dorivor o‘simliklar tarkibini o‘rganish; va h. k. bo‘yicha olingan tajribalar natijalarini o‘rganish va albatta, mustaqil umumlashtirishni talab qiladi.

Talabalarning mustaqil malakaviy bitiruv ishi mustaqil tadqiqot sifatida uncha yirik bo‘lmasada ilmiy qiymatga ega bo‘lib, fanni ma‘lum darajada yangi dalillar, yangi yutuqlar bilan boyitishi, fanda haligacha ma‘lum bo‘lmagan materiallarni namoyon qilishi va yoritishi lozim.

Samarqand davlat universiteti amaliyotida nisbatan oz bo‘lsada talabalar malakaviy ishlari materiallari ilmiy jurnal va to‘plamlarida nashr qilinmoqda.

Xuddi kurs ishi kabi kafedra ancha oldindan talabalarga malakaviy bitiruv ishlari mavzularining dolzarbligini, fanni yanada rivojlantirishdagi ahamiyati, kafedraning ilmiy profiliga, ilgari bajarilgan kurs ishlari mavzular bilan bog‘liqligi hamda talabalar uchun har bir mavzuni bajarish mumkinligi hisobga olinadi.

Yuqorida keltirilgan malakaviy bitiruv ishlarining ro‘yxatidan ko‘rinadikki, bir kafedra tomonidan taqdim etilgan mavzular, boshqa kafedralar uchun ham qiziqish uyg‘otishi mumkin. Masalan, “O‘zbekiston tarixi” kafedrasida taqdim etgan “XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Jadidchilik ma‘rifatparvarlarining harakati”, “Orol fojiasi va uning kelib chiqish sabablari”, “Psixologiya” kafedrasining “O‘rta maktab ta‘lim jarayonida o‘quvchilarda barqaror qiziqishlarni shakllantirish” va b. q. mavzular pedagogika kafedrasida uchun ham katta qiziqish tug‘diradi.

Buni ko‘zda tutish juda muhim, chunki manfaatdor bo‘lgan kafedra bilan aloqa o‘rnatib, maslahatlashib, bajarilgan ishga taqiriz yoki fikr-mulohazalar olish mumkin.

Malakaviy bitiruv ishini muvaffaqiyatli bajarish uchun kurs ishini yozishga nisbatan uning mavzusini tanlash yanada katta ahamiyatga ega.

Kurs ishining mavzusini aniqlashga nisbatan talabalarda bu vujudga kelgan ilmiy qiziqishlar asosida mavzularni ularning o‘zlari tomonidan tanlashlari sezilarli darajada ko‘p bo‘ladi. Mazkur talabalarning ilmiy qiziqishlari yoki kurs ishlari bajarish bilan yoki ishlab chiqarish amaliyoti bilan yoki maktabda, bog‘chada kasb-hunar kollejida u yoki bu ishni bajarish bilan namoyon bo‘ladi.

Talabalarda ilmiy qiziqishlarni shakllantirishda va ular tomonidan malakaviy bitiruv ishlari mavzularini tanlashlarida ularning talabalar ilmiy jamiyati ishida ishtirok etishi, ma‘ruzalar tayyorlashlari, bahs-munozaralarda faol bo‘lishlari va h.k. katta ahamiyatga ega.

Malakaviy bitiruv ishini yakunlash va himoya qilish odatda aprel, may oylariga belgilanishiga qaramasdan, mavzu tanlash va uni tasdiqlash bir yildan kam bo‘lmagan muddatga ya‘ni universitetda uchunchi kurs mashg‘ulotlaridan oxirida tavsiya qilinadi.

Bu mutlaqo zarur bo'lib, uchinchi kurs talabalari o'quv mashg'ulotlaridagi yozgi ta'tildan foydalanish, (biologlar, ximiklar, iqtisodchilar) va aniq hayotiy materialni tuzish va to'plash yoki turli arxivlar va fondlarda materiallarning mavjudligini va mazmunini (tarixchilar filolog-adabiyotshunoslar va h.k.) o'rganish bilan shug'ullanadilar.

Universitet talabalari, odatda uchinchi kursni tugallagandan keyin malakaviy bitiruv ishi oldi ishlab chiqarish amaliyotiga jo'natiladi. Masalan, biologlar turli xil bazalarga, tajriba stansiyalariga, ximiklar ishlab chiqarishga yoki laboratoriyalarga, pedagoglar maktab, bolalar bog'chalari, kasb-hunar kollejlarida amaliyot o'taydilar.

Mazkur malakaviy bitiruv ishi (biologlar uchun 12-13 hafta, fiziklar uchun 6 – hafta, pedagoglar uchun 10 – hafta, psixologlar uchun 8 - hafta va h.k.) davomida talaba malakaviy bitiruv ishi mavzusining barcha savollariga, talablariga to'la javob beradigan va yetarli darajada material yig'ishi lozim.

Bayon qilinganlar shundan dalolat beradikki, uchinchi kurs oxirida, malakaviy bitiruv ishi oldi amaliyotiga tayyorgarlik boshlanib talaba nafaqat malakaviy bitiruv ishi mavzusini tanlashni tugallashi balki tadqiqot rejasini tuzishni ham izlanish natijalarini bayon qilish rejasini ham tuzishi shart.

Yer uchastkasida, fermada, korxonada, arxivda va h.k. material yig'ishga kirishishdan oldin malakaviy bitiruv ishi bayonining mo'ljali tuzishi uning qaysi qismi adabiy manbalar asosida, qaysi qismi amaliy materiallar asosida yozilishini hal qilishi tavsiya qilinadi. Shundan so'ng zarur amaliy materialni izlash va to'plash, imkon darajasida barcha detallarni qayerda? Qachon? Qaysi jihoz yordamida? Nima aniq? Qanday qilib bajariladi? aniq rejasini ishlab chiqish zarur.

Eksperimental ish rejasini mayday-chuda detallarigacha bayon qilish, misol uchun biologlar, fiziklar, ximiklar, geograflar va b.q. mutaxassislar uchun ayniqsa muhim chunki, ularga nafaqat joy (maydoncha, havza, ferma va h.k.) balki eksperiment obyekti, eksperiment o'tkazish vaqti va boshqa ko'p miqdordagi sharoitlarni tanlashga to'g'ri keladi.

Eksperiment ijobiy natija keltirishi uchun barcha narsa o'ylab chiqilgan, tayyorlangan va o'z vaqtida bajarilgan bo'lishi kerak.

Malakaviy bitiruv ishi oldi ishlab chiqarish amaliyoti davrida dalillarni to'g'ri saralash va qayd qilish muhim ahamiyatga ega. Dalillarni qanday yig'ish kerak? Ularning aloqalarini va o'zaro bog'liqligini qanday o'rnatish kerak?

Qat'iy bardoshlik va g'oyat sinchikovlik bilan adabiyotlarni namoyon qilish, to'plash va o'qishni har bir mutaxassis u qaysi mehnat sohasida yoki ilmiy- fanda shug'ullanmasin, o'zida shakllantirishga majburdir.

Malakaviy bitiruv ishini yozish uchun ishlatilgan barcha adabiy va arxiv manbalari ishning oxirida alohida ro'yxatda alfavit tartibida kiritiladi.

Malakaviy bitiruv ishini adabiy rasmiylashtirish kurs ishiga nisbatan talabdan yanada uzoq o'tirib ishlashni va sinchikovlikni talab qiladi.

Matnni ko'p miqdordagi dalillar bilan yoki ayrim dalillarni juda to'liq tafsilotlar bayoni bilan to'ldirib yubormaslik kerak. Ayrim dalillar va misol (namuna) larni malakaviy bitiruv ishining ilovalarida alohida-alohida keltirish joiz.

Malakaviy bitiruv ishi matniga hodisa, voqea va ularning qonuniyatlarining kuchayishini aks ettiruvchi jadvallar, grafiklarni, diagrammalarni kiritish maqsadga muvofiqdir.

Samarqand davlat universiteti amaliyotida talabalarning malakaviy bitiruv ishi tuzilish jihatidan, odatda kirish, 2-4 boblar va umumiy xulosalarni o'z ichiga olgan xulosa, adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'ladi.

Malakaviy bitiruv ishi hamma fakultet va mutaxassisliklarga bog'liq bo'lib, u 60-80 sahifani tashkil qilishi mumkin.

Malakaviy bitiruv ishi ham kafedra tomonidan tayinlangan o'qituvchining ilmiy rahbarligida bajariladi va maxsus yakuniy davlat attestatsiya komissiyasida himoya qilinadi.

Himoyaga ilmiy rahbarning yozma taqrizi hamda taqrizchilarning taqrizlarida bildirilgan roziliklari olingandan keyin ruxsat beriladi.

Malakaviy bitiruv ishi oshkora ravishda jamoatchilik oldida himoya qilinadi. Bunda xuddi kurs ishi himoyasi singari bitiruvchi bakalavriyat oldin kirish so'zida ishning asosiy jihatlari va xulosalarini bayon qiladi. Kirish so'zidan keyin himoyada qatnashganlar savollar beradilar, savollarga talaba birdaniga yoki yakunlovchi so'zidan keyin javob berishi mumkin.

So'ngra taqrizi bilan ilmiy rahbar, taqrizchilar hamda qatnashganlardan barcha xohlovchilar so'zga chiqadilar, himoyaning nihoyasida talabaga javob berish uchun so'z beriladi. Bunda u o'z xulosalari, qoidalari, tavsiyalarini, ularga gumon bilan qaraganlar oldida himoya qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Malakaviy bitiruv ishi mavjud reyting tizimi asosida yashirin ovoz bilan yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasi a'zolari tomonidan baholanadi va baho talaba reyting sinov (joriy, oraliq, yakuniy nazorat) daftariga kiritiladi.

Malakaviy bitiruv ishi qoniqarsiz deb topilganda talabaga yangi ish yozish uchun bir yil muddat beriladi.

Talabalarning joriy, oraliq, yakuniy nazorat ishlariga tayyorgarlik ko'rish

Nazoratning bosh vazifasi talaba tomonidan predmet mazmunini o'zlashtirilganlik sifatini tekshirishdan iborat. Ana shunday tekshirish asosida nafaqat talabalarning balki professor-o'qituvchilarning o'quv ishi; nazorat natijalari bo'yicha O T N da butun o'quv jarayonini tashkil etish holati to'g'risida ham mulohaza yuritish mumkin.

Biroq bilimlarni tekshirish nazoratning yagona maqsadi emas. Aytish joizki, nazoratlar – bu o'quv jarayonini boshqa vositalar bilan davom ettirishdir. Nazoratga tayyorgarlik ko'rishda talaba semestr davomida

eshitgan va o'rgangan fanlar materialini nafaqat takrorlaydi va to'ldiradi; olingan bilimlarni umumlashtiradi, fanning metodologiyasini, uning tizimini anglaydi, undan asosiysining va eng muhimini ajratadi, fanning alohida elementlari orasidagi aloqani chuqurroq tushunish uchun fanning umumiy manzarasini tiklaydi. Ushbu umumlashtiruvchi shu iroda va ongning zo'r berishi kundalik hayotdan sezilarli darajada izlanish, ya'ni tushunish va xotirada saqlash uchun qulay sharoitda sodir bo'ladi.

Nazoratga tayyorgarlik ko'rish o'z bilimlarini tartibga keltirishdan iborat. Hatto eng kuchli talabalar ham butun semestr materiali ustida o'z vaqtida ishlamagan bo'lsalar nazoratlarning qisqa davrida uni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'lmaydilar. Semestr davomida muntazam tayyorlanmaganlarga nazoratlardan foyda kam ya'ni nima tez o'tgan bo'lsa, u shuncha tez esdan ham chiqadi.

Nazoratlarga qanday yaxshi tayyorlansa bo'ladi?

Birinchidan, mashg'ulot va dam olishni almashib turuvchi kun tartibini tuzish kerak. Vaqtni yo'qotishni oldini olish uchun ishga nisbatan uzoq davomli ish davrini kiritish maqsadga muvofiq, ya'ni kunni taxminan uch qismga –ertalabdan tushlikkacha, tushlikdan kechki ovqatgacha va kechki ovqatdan uyqugacha bo'lish joiz.

Kunning har ish davri dam olish bilan yakunlanishi kerak. Nazorat sessiyasi davrida eng yaxshi dam – bu sayr, qisqa muddatli yugurish yoki charchatmaydigan, yengil jismoniy mehnat hisoblanadi. Sessiya davrida kino, teatrga borish mumkin emas.

Nazoratlarga tayyorgarlik ko'rishda asosiy yo'nalishni fanning dasturi va talabaning konspekti beradi, ular fanning eng muhimlari nimaligini ko'rsatadi. Asosiy material darslik bo'yicha o'rganilib chiqilishi kerak, chunki konspekt fanni o'rganish uchun yetarli emas. Darslik semestr davomida o'rganilishi lozim, nazoratdan oldin esa asosiy, eng murakkab bo'limlariga e'tiborni qaratish asqotadi. Har bir bo'lim bo'yicha tayyorgarlik xotirada mantiqiy ketma-ketlikda tiklash bilan tugallanishi kerak.

Nazoratdan bir kun oldin konsultatsiya belgilanadi. Undan to'g'ri foydalanilsa katta foyda keltiradi. Konsultatsiyalarda talaba murakkab yoki qolgan tushunarli bo'lmagan savollarga javoblar oladi va shunday qilib materialni kam-ko'stini to'ldiradi. Konsultatsiyaga shubha uyg'otadigan barcha savollarni tayyorlagandan so'ng qatnashish tavsiya etiladi. Barcha materialni ishlamasdan konsultatsiyaga kelgan talabaga bunday konsultatsiyadan katta foyda bo'lmaydi.

Nazorat sessiyasi davrida to'g'ri ish rejimining muhim sharti meyorida uxlash hisoblanadi. Nazoratga tayyorgarlik uyqu zarariga bo'lmaslik kerak, aks holda nazorat kuni yaxshi javoblar berish uchun kerak bo'lgan tetiklik va bardamlik tuyg'usi bo'lmaydi.

Nazorat oldidagi kechani uncha katta (uzoq) bo'lmagan sayr bilan tugallashni tavsiya qilamiz.

Nazoratda nafaqat fanni bilishni, balki og'zaki (yoki yozma) javobni mantiqiy bog'lagan holda tuzish va bayon qilish ko'nikmasini namoyon qilish lozim.

Variantni olib, qo'yilgan savollarni to'g'ri tushunish uchun uni o'ylab ko'rish joiz. Odatda ikki turdagi xatolar uchraydi, ya'ni talaba qo'yilgan savolga emas, boshqa savolga javob beradi yoki oddiy savoldan yashirin (pinxona) ma'no (mazmun) izlaydi va birdaniga tabiiy va aniq javob topadi.

Savolni tushunmasdan va javob rejasini o'ylamay turib, darhol yozishni boshlamang.

O'z javobingiz matni mazkur mavzuga qisqa javob sifatida qarang. Uni zarur xulosa formulalar, grafiklar bilan bezatilgan tezislar ko'rinishida tuzing. Javoblarni juda qisqa, biroq juda aniq tuzishga harakat qiling.

Bamaylixtir, aniq, o'ylab, shoshmasdan javobingiz yozuvlariga tayanib javob berishingiz lozim. Nazoratda talaba nafaqat o'z bilimlarini ko'rsatadi, balki talaba o'zini qo'lga olishni o'rganadi: talaba o'z fikrini o'zgartirishga o'rganadi. O'qituvchilik tayorgarligi rasmiy bilimlarni emas, balki ularni qo'llash ko'nikmalarini, tinglovchi (o'quvchi) larni o'z fikr, mulohazalarini to'g'riligiga ishonтира olish ko'nikmalarini talab qiladi. O'qituvchi hech qachon bir o'zi ishlamaydi, u hamma vaqt jamoada. U o'z fikrlarini boshqalarga aniq yetkazish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak.

Nazoratning og'zaki usulida variant savollariga javob bergandan so'ng, nazorat oluvchi talabaga qo'shimcha savollar beradi. Ulardan maqsad variant savollariga kirmagan fanning bo'limlari bo'yicha talabani tushunchalarini aniqlashdan iborat. Odatda ularga, qisqacha javob berish savolning mohiyatini ko'rsatish yetarli. Ko'p hollarda talabalar qo'shimcha savollarga javob berishda savolning mazmunini tushunmasdan shoshilib javob berishni boshlaydilar, ba'zi hollarda esa mavzu bo'yicha emas.

Yuqorida bayon qilinganlarga asoslanib, talabalarga quyidagilarni tavsiya qilishi joiz:

-nazoratga eng yaxshi tayyorgarlik - butun semestr davomida bir tekis ishlash;

-o'quv fanining materialini o'zlashtirish uchun vaqt zarur.

Vaqt bo'yicha ish rejasini tuzing.

-barcha joriy, oraliq, yakuniy nazoratlarni nazorat sessiyasi boshlanganga qadar topshirish kerak

-nazoratlarni topshirishda muvaffaqiyat garrovi;

-fan dasturi bilan tanishish - talabani nazoratga tayyorgarlik ko'rishini tashkillashtiradi;

-konspekt o'quv darsligining o'rnini bosolmaydi, undan asosiysini tanlashga yordamlashadi;

-nazoratga tayyorgarlik ko'rishda eng ko'p diqqat va vaqtni qiyin va tushunarlimas bo'limlarga ajratish muhim;

-bir tekis (meyor) va maromda ishlash;

- konsultatsiyadan to'g'ri foydalanish;

- nazorat sessiyasi vaqtida to'g'ri ish rejimiga amal qilish ish qobiliyatini saqlaydigan va yaxshi natija beradigan;

- nazoratda o'zini boshqara olish;

- o'z fikrlarini aniq va qisqa o'zlashni o'rganish;

Nazorat sessiyasi talaba hayotida ma'suliyatli, yakunlovchi bosqich bo'lib butun yillik o'quv ishi natijasiga yakun yasaydi. Shu bois, ushbu bosqichda talaba mehnatini tashkil etish masalasi, o'z-o'zidan diqqatni o'ziga tortgan va tortib kelmoqda.

Eng avvalo shuni takidlash lozimki, barcha joriy, oraliq, yakuniy nazorat va nazoratlarni muvaffiqiyatli topshirishning kafolati yil davomida muntazam ravishda, vijdonan, o'z vaqtida shug'ullanish hisoblanadi. Shunday qilib, buni hamma vaqt aniq tasavvur qilish lozimki, nazorat sessiyasiga tayorgarlik ko'rish, mashg'ulotlarining birinchi kundan boshlanadi va butun o'quv yili davrida davom etadi.

Biroq, bu nazorat sessiyasi oldidan va sessiya davrida maxsus qo'shimcha va bir talay o'ziga xos ishni inkor etmaydi.

Nazorat sessiyasi oldidan va sessiya davrida talaba ishining o'ziga xos vazifasi yil davomida o'rganilgan materialni takrorlash, umumlashtirish va tizimlashtirish hisoblanadi.

O'qilgan materialni sessiya davrida nazoratlar oralig'ida takrorlash mumkin emasligi tufayli takrorlashni nazorat sessiyasidan bir, bir yarm oy oldin boshlash tavsiya etiladi. Takrorlashga kirishishdan oldin eng avvalo qaysi fanlar nazorat sessiyasiga kiritilishini (odatda shunday fanlar ro'yxati talabalarga) sessiya boshlanishidan bir oy oldin yetkaziladi va agar imkoni bo'lsa har bir nazoratning kalendar muddatlarini aniqlash zarur.

Nazorat sessiyasiga kiritiladigan fanlarni aniqlab, talaba fanning o'quv dasturi bilan o'zini ta'minlashi zarur. Takrorlash zamirida faqat fan dasturi bo'lishi kerak. "biletlar" bo'yicha ham "nazorat savollari" bo'yicha ham takrorlash kerak emas, bu bilimlar tizimini buzadi, mexanik ravishda yodlashga olib keladi. Turli xil "pala-partish" bilimlarga "nazorat savollari" bo'yicha takrorlash bilimlarda eng muhimlarini tushirib qoldirishga va kamchiliklarga hamda bazan dasturining ayrim juda zarur bilimlari ketidan chala ishlashga olib keladi.

Barcha o'rganilganni mexanik tarzda takrorlash emas, balki faqat dasturning keyingi bo'limlarini, esdan chiqqanlarini, chuqurlashtirish va puxta o'ylab ko'rishni talab qiladiganlarini takrorlash kerak bo'ladi. Demak, bu ham juda muhim, har bir talaba uchun takrorlash, albatta, o'ziga xos, harakterga ega.

Takrorlash - yakka tartibdagi jarayon; har bir talaba nimani qiyin, tushunarli emas, esdan chiqqan desa shuni takrorlashi lozim. Shu boisdan ham takrorlashga kirishishdan oldin dasturni diqqat bilan ko'zdan kechirib, eng qiyin eng sust o'zlashtirilgan bo'limlarni aniqlab, ularni alohida qog'ozga ko'chirib olish zarur.

Takrorlash jarayonida dastur material (darslik, ma'ruzalar yozuvlari o'qilgan kitoblar yozuvchilari, konsultatsiya yoki seminarlardan yozib

olingan) larini o'rganish jarayonida to'plangan barcha bilimlar tahlil qilinadi va bir tizimga keltiriladi.

Faqat yagona konspekt bilan, ayniqsa begona yozuvlar bilan, chegaralanish aslo mumkin emas. Turli xil yozuvlar va konspektlar ham alohida individual narsalar bo'lib, ular faqat muallifga tushunarlidir.

Begona yozuvlar nazorat bo'yicha tayyorlanib, juda qo'pol xatolarga osongina botib qolish mumkin.

Takrorlashni o'quv dastur mavzulari yoki darslik boblari bo'yicha olib borish tavsiya etiladi. Mavzu ustida ishlashni tamomlab, darslik savollariga yoki topshiriqlariga javob berish lozim. Eng yaxshi material o'z-o'ziga aytib berishdir.

Fizika, ximya, matematika bo'yicha o'tilganlarni darsliklarga qaramasdan barcha chizma, sxema, formulalar va isbotlarni hamda tiniq masalalar va misollarni hal qilishni mustaqil ravishda qaytarish juda ham zarur.

Odatda nazorat sessiyasi davrida talabalar uchun konsultatsiyalar tashkil etiladi, ulardan bilimlarni chuqurlashtirish, bilimlardagi kemtiklarni to'ldirish hamda vujudga kelgan barcha qiyinchiliklar va tushunmovchiliklarni hal qilish uchun foydalanishda barcha choralarni ko'rish kerak.

Konsultatsiyalarga va tushuntirishlarga faqat materiallarni sinchiklab, mustaqil obdon o'ylab chiqqandan so'ng murojat qilish darkor; bu siz konsultant bilan bo'ladigan suhbat "umumiy" yuzaki xarakterda bo'lib, kerakli natijani bermaydi.

Joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarga tayorgarlik ko'rish davrida talaba mehnati va dam olishini tashkil etishi katta ahamiyatga ega.

Talabaning aqliy mehnatini tashkil etish.

Mustaqil ish tashkil etishi lozim bo'lgan ma'lum sharoitlardagina muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Aqliy mehnat diqqat-e'tiborini talab qiladi, hamma tashqi chalg'itishlar chuqur o'ylab ishlashga xalaqit beradi. Ana shuning uchun ham shovqin, gaplashish bo'lmagan joyda ish joyini tashkil etish juda muhim. Aqliy mehnat uchun ish joyi katta ahamiyatga ega. Uyda tegishli sharoitlar bo'lmasa, alohida kutubxonalar qoshidagi o'quv zallaridan foydalanish kerak.

Ish joyida faqatgina shu vaqtda kerak bo'lgan predmetlar bo'lishi lozim. Mashg'ulot uchun kerak bo'lmagan narsalar olib qo'yilishi shart. Qo'lingizda dastur topshiriq, kitoblar, qog'oz, qalam, avtoruchkalar, lug'atlar va boshqa qo'llanmalar bo'lishi darkor. Ishga hafsala bo'lmagani uchungina ishni qoldirish, yoki kechiktirish mumkin emas. Kayfiyatni o'zingiz yaratishingiz kerak. Ishning zarurligini tushunish, maqsadni bilish, istiqbolni anglash kayfiyatga ijobiy ta'sir qiladi. Irodaviy zo'r berishdan foydalanib, ishga ko'milamiz, yangi bilimlarni egallaymiz hamda shu bilan ishchi muhit yaratamiz. Bizning ishga munosabatimiz unda muvaffaqiyatlar borligi bilan bog'langan. Mehnat

natijalari qancha sezilarli bo'lsa, odam shuncha qoniqish oladi. Ish sifati esa faqat bizga, ishimizda butun kuchimizni ishga solishga bog'liq.

Har qanday ish dam olish bilan almashib turishi lozim, bu esa uzoq vaqt davomida kishining ish qobiliyatini saqlaydi. Uzluksiz aqliy mehnat, ayniqsa, ish kuni oxirida charchashga olib kelishini esdan chiqarmaslik kerak. Charchash boshlanishini payqash juda muhim. Odatda aqliy mehnat bilan shug'ullanib yurgan odamlar ish qobiliyatini pasayishini, diqqati susayishini qanday sodir bo'lishini, charchash sezgilarini paydo bo'lishini payqaydilar. Bu vaqtda darhol ishni to'xtatib dam olishi kerak bo'ladi. Dam olishni turlicha tashkil etish mumkin: tananing holatini o'zgartirish, mushak (muskul) larni bo'shashtirish, o'rindan turish yurish va toza havodan nafas olish.

Ko'zni charchashdan oldini olish uchun uni zo'riqishini pasaytirish, ko'zni ma'lum muddatga yopish kerak bo'ladi.

Dam olishning asosiy shakli uyqu hisoblanadi. I. P. Pavlovning fikricha, uyqu bosh miya hujayralarining tormozlanishidir. Uyqu jarayonida hammada yaxshi kuchlar to'planadi.

Uyqu hamma vaqt ma'lum muddat (soat) da ro'y bersa, yani odam ma'lum rejimga rioya qilsa, u ayniqsa, ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Uzoqqa cho'zilmagan, qisqa muddatli dam olish charchashni tez oladi. Organizmda sodir bo'lgan jiddiy signalga - charchashga javob berilmasa, u holda ilgari ish qobiliyati yo'qoladi va organizm charchashga, keyinroq esa madorini quritishga (toliqtirishga) ga olib keladi.

Toliqish asab tizimining oliy bo'limlarida boshlanadi va boshqa bo'limlarga ham tarqaladi, oqibat natijada butun organizmga ta'sir qiladi. Charchashni qisqa muddatli dam olish bilan, toliqishni esa uzoq muddatli dam olish bilan oldini olish mumkin. O'ta toliqish (madorni qurishi)ning oldini olish uzoq davom etadigan jarayon.

O'ta toliqish uzoq davr davomida yetarli darajada dam olmaslik tufayli odamga tajovuz qiladi, va uni yaxshi tashkil etilgan uzoq davrda dam olishni va mehnat rejimini to'g'ri tashkil etish orqali olish mumkin. O'ta toliqishning sezgisi bosh og'rishi, lanjlik, ishtahaning yo'qolishi va uyqusizlik ko'rinishlarida namoyon bo'ladi.

Aqliy mehnatni to'g'ri tashkil etishda professor Vedieniskiyning ishlash (ish) qobiliyatining besh sharoiti to'g'risidagi ko'rsatmasi katta ahamiyatga ega:

- mehnatga asta-sekinlik bilan kirish;
- ish rejimini ushlab turish;
- -faoliyat birin-ketin va muntazam bo'lishi lozim;
- Jamiyatning mehnatga ijobiy munosabati.

Mazkur shartlarga rioya qilish tabiiy ravishda odamning ish qobiliyatini saqlaydi. O'z kuchi va energiyasini tartibsiz sarflash asab tizimining buzilishiga, shuning bilan birga ish qobiliyatini yo'qolishiga ham olib keladi.

Ish qobiliyati va sog'liqni saqlash faqat faol dam olish orqali ta'minlanishi mumkin. Faol dam olishni jismoniy mehnat va sport, sayr va suv prosedurasi, o'yin va kungil ochar kabi turdagi mashg'ulotlar orqali tashkil etish mumkin. Faoliyatni o'zgartirish qo'zg'alish (uyg'onish) va tormozlanish o'chog'iga, markaziy asab tizimining boshqa soha (qism) lariga siljishi bilan bog'langan.

Talaba ishini rejalashtirish.

Mustaqil mashg'ulotlarni vaqt bo'yicha ham mazmuni bo'yicha ham rejalashtirish kerak. Mehnatni taqsimlash mustaqil faoliyat malakalari yetarli darajada rivojlanmagan kishilar uchun, ayniqsa, juda muhim. Mashg'ulotlarni shunday rejalashtirish kerakki, talaba hafta oy yoki hatto yil davomida har kuni va bir maromda shug'ullansin. Talabaning mashg'ulotlar uchun doimiy vaqt ajratishi juda muhim. Ma'lum soatlarda ishlash odati belgilangan vaqtda o'tirishga undaydi, ishga jalb qilishga vaqt sarflamaydi.

Oliy ta'lim muassasi o'quv mashg'ulotlarida bo'lish vaqti har kimda har xil. Oliy ta'lim muassasiga borish va kelish uchun sarflanayotgan vaqt ham har xil. Shuni hisobga olib qolgan vaqtni imkon darajada maqsadga muvofiq rejalashtirish joiz. Mashg'ulotlar uchun ham, dam olish uchun ham va o'yin-kulgu uchun ham aniq vaqt ajratish tavsiya qilinadi. Ana shunday qat'iy belgilash o'z vaqtdan to'g'ri foydalanishga va uni oqilona sarflashga yordam beradi.

Hayotning ko'rsatishicha, talaba o'quv mashg'ulotlarini har kuni uch- to'rt soat ish hisobidan rejalashtirishi (10-15 minut tanafus bilan) kerak. Uch-to'rt soatlik mustaqil mashg'ulotlar har bir talaba fikrini to'plashi va kitob mazmuniga chuqur kirib borishiga imkon yaratadi.

Zarurat tug'ilganda har bir talaba qiyinchiligi turlicha bo'lgan bir necha masalalarni yechish, individual xususiyatlariga mos ravishda o'z mashg'ulotlarini qanday to'g'ri rejalashtirishni o'ylash lozim. Amaliyotni ko'rsatishicha, ba'zilar uchun ishni oson o'zlashtiriladigan materialni o'rganishdan boshlab, keyin asta-sekinlik bilan tortilib qiyinroq materialni o'rganishga o'tish qulay bo'ladi.

Boshqalar uchun esa mustaqil ishni murakkabroq topshiriqlarni bajarishdan boshlab, ish yakunida yengilroq topshiriqlarga o'tish qulay ekan.

O'quv mashg'ulotlari va dam olish orasiga keskin chegara qo'yish zarur. Buning uchun mashg'ulotlarga ajratilgan vaqtda boshqa ish bilan shug'ullanib ketmasdan to'lig'icha o'quv faoliyatga kirishish, dam olish vaqtida esa dastur materialini to'g'risida o'ylamaslik kerak.

Mashg'ulotlar jarayonida ishga to'liq kirisha olmasak, dam olish vaqtida ish haqida o'ylashni davom ettirish, dam olishning, ishning samarali bo'lishini buzadi.

O'quv mashg'ulotlariga ajratilgan vaqtni aniqlashdan tashqari uning hajmini aniqlash, topshiriqlarni bajarish muddatlarini boshlanishi va oxirini belgilash zarur. Bu talab, o'quv jarayonini tashkil etadi va o'quv dasturini bajarish uchun unda masuliyatni tarbiyalaydi.

Mustaqil ish uslubiyati o'rganilayotgan fan tuzilishiga harakteriga va o'ziga xos xususiyatlariga talabning individual sifatlariga hamda o'quv faoliyati sharoitiga bog'liq.

Xulosa o'rnida.

Har bir talaba qanday sharoitlarda uning mustaqil ta'limi (ishi) eng mahsuldor bo'layotganini tahlil qilishi va shunga mos ravishda o'z kun tartibini aniqlab borishi lozim. To'g'ri tashkil etilgan talabning mustaqil ishi oliy ta'lim muassasasi o'quv rejasiga muvaffaqiyatli bajarilishida bosh va aniqlovchi omil hisoblanadi.

Mustaqil ishlash, tinimsiz mutolaa qilish orqali inson bilim pillapoyalari bo'ylab qanday yuksak natijalarga erishishi mumkinligini talaba-yoshlarga ibratnamuna sifatida ko'rsatish maqsadida ma'naviy merosimizdan quyidagi misolni keltirishni lozim, deb topdik: "Tiniq zakovati va hayratomuz darajadagi xotirasi tufayli Ibn Sino tez orada ustozlaridan ham o'zib keta oldi. Ustoz an – Notiliy haqida alloma o'zining tarjimai holida: "U menga qaysi masala haqida gapirmasin, men u masalani undan ko'ra durustroq tasavvur qilardim", - deya xotirlaydi.

An – Notiliy bilim doirasi, u egallagan butun ilmlarini Ibn Sino uchun ozlik qila boshladi, yigitchani esa bunday ta'lim qoniqtiraolmas edi. Bu haqda Ibn Sino ortiqcha takallumlarsiz: „... men unga shunday ta'rif berdim-ki, unday gaplarni ham eshitmagan ekan. U meni juda hayratga soldi... Uning muqaddimasini o'qib bo'lib, xandasiy shakillarga yetganimni, Notiliy meni o'qitishga ojizlik qilib qoldi va menga shunday dedi: "Endi uni men o'zim o'qib, o'zingga echishga harakat qilaver, keyin menga aytib berasan, men senga to'g'ri yoki noto'g'riligini ko'rsataman. U kishi bu kitobdan durustroq xabardor emas ekan. Men bu kitobni o'zimga o'zlashtirishga kirishdim. U kishiga qanchadan – qancha shakillarni tushuntirib berardim, shunga qadar u bularni bilmas ekan". [283-284].

Mexanika fanidan ma'naviy yo'naltirilgan mustaqil ishni tashkil etish bo'yicha ayrim namunalari.

Endi mexanika fani bo'yicha ma'ruza, amaliy, laboratoriya va b.q mashg'ulotlarida ta'limning milliy yo'naltirilgan prinsipiga tayangan holda talabalarning ma'naviy mazmun bilan boyitilgan mustaqil ishini qarashga o'tamiz.

Mexanika fanidan ma'ruza mashg'ulotlarida mustaqil ishni tashkil etish rejasi 1-jadvalda bayon qilingan.

«Mexanika» fanidan talabalar mustaqil ishini tashkil etish

REJASI

№	O'quv dasturi mavzulari	Kafedra tavsiya etgan o'quv topshiriqlari mazmuni	Mustaqil ish	soat	Maksimal ball	Saralash bali	muddati
1	Xatoliklar nazariyasi: analitik tarozida ishlashni o'rganish Deformatsiya	Beruniyning fizik kattaliklarni o'lchashda aniqlik darajasini kuzatuvchining mas'uliyati xaqidagi ishlari mavzusi bo'yicha didaktik yozma materiallar, rasm, jadval tayyorlash. Beruniy, Al-Xorazmiy, Chagminiy va b.k. tomonidan mexanik va astronomik kattaliklarni yuksak darajada aniqlikda o'rganish va o'lchash uchun yaratilgan asbob-uskuna (*ind doirasi (kompas), kvadrat, qolip, suvdon, hajm o'lchagich (olat) avtomat sug'orgich va x,.k.)larni loyihalash. Buyuk vatandoshimiz Abu Rayxon Beruniy - jahon eksperimental fizikasi fanining asoschisi Jahonga dong'i ketgan Buxoro-6 paxta navi tolasining cho'zilishi, <u>mustaxkamligini o'lchash</u>	Loyiha va hisobotni tayyorlash	10	25	14	

2	<p>Kinematika: Gorizonttal va gorizontalga ksyta otilgan jiemning harakati</p> <p>Dinamika: Nyuton qonunlari. Kuch <u>impulsi</u></p>	<p>Ibn Sino tomonidan impetus (harakat bir jismdan boshqasiga berilishi) nazariyasining rivolanitirilishi Ibn Sinoning jism harakati (dinamika) qonunlarini Nyutondan VII asr oldin bilganligi bilan bog'liq, tarixiy materiallarni to'plab, amaliy mashg'ulotlarga nazariy tayyorgarlik ko'rish</p>	Referat tayyorlash				
3	<p>Suyukdiklar va gazlar harakati</p>	<p>Beruniy, Al-Xorazmiy yaratgan agro-gidrostatik tarozilarni loyihalang, chizmalarini tayyorlang. Gidrostatik tortish usuli bilan kartoshka, lavlagi va x.k.lar hajmini aniqlang. Beruniy o'Ichagan moddalar solishtirma og'irliklarining aniqlik darajasini zamonaviy usulda aniqlang, kattaliklar bilan taqqoslang, buyuk vatandoshlarimizning fan fidoyisi ekanligi tug'risida xulosalaringizni yozma ravishda bayon qiling.</p>	Tajriba natijalari aks etgan hisobot	10	25	14	

		Beruniyning tutash idishlar, vodoprovod, buloqlar, fantan, artezian quduqlar, bo'shliq, (vakuum), atmosfera bosimiga doir materiallarni o'rta maktab fizika kursida aks ettirilganligini o'rganish. O'tmishda to'quvchilik, hunarmandchilik, me'morchilikda foydalanilgan richag, chig'iriy, g'altak, pona va x.k. mexanik moslamalarni tayyorlang. Richagli avtomatik sug'orgichning ishlash prinsipi bayonini yozma shaklda ifodalab bering va himoya qiling.	Tajriba natijalari aks ettirilgan hisobot				
4	Kinematika. Dinamika. Buyuk olam tortishish qonuni	Richagli avtomatik sug'orgichning ishlash prinsipi bayonini yozma shaklda ifodalab bering va himoya qiling.	Taqriz yozish	4	25	14	
	Jami:			28			

2-jadval

Mexanika kursi namunaviy ishchi dastur bo'yicha o'quv yuklama hajmining taqsimoti

Bakalavriat yo'nalishining shifri	O'quv yuklamasi hajmining mashg'ulot turlari bo'yicha taqsimlanishi (soatlar)					
	Jami	Ma'ruza	Amaliy mashg'ulot (seminar)	Laboratoriya	Kurs (ishi) loyixasi	Mustaqil ish
V-5440100	213	65	40	80	-	28

Ma'ruzalarga oid mavzularning mazmuni

Ma'vzu	Boblar bo'yicha ma'ruzalr nomi va mazmuni
I bob. Kinematika (10 soat)	
1.1	Kirish. Mexanik harakat. Fazo, vaqt, sanoq sistemalari
1.2	haqida tushuncha.
1.3	To'g'ri chiziqli harakat va grafiklari.
1.4	Egri chiziqli harakat. Aylanma harakat.
1.5	Erkin tushish. Osmonga tik otilgan jism harakati. Gorizontga qiya otilgan jism harakati.
II bob. Dinamika (18 soat)	
2.1	Kuch va o'zaro ta'sir. Nyuton qonunlari.
2.2	Jismning erkin bo'lmagan harakati.
2.3	Kuch va jism impulsi. Impuls saqlanish qonuni. O'zgaruvchan massali jism harakati.
2.4	Ish va energiya. Kuchning ishi. Deformatsiya energiyasi.
2.5	Kinetik energiya. To'liq noelastik va elastik to'qnashishlar.
2.6	Yerning tortish maydonida jismning potensial energiyasi. Energiya saqlanish qonuni.
2.7	Ishqalanish kuchi. Sirpanish va tinch ishqalanish.
2.8	Dumalanish ishqalanish.
2.9	Inersial sanoq sistemalari. Inersial sistemada jismning harakati. Aylanma harakat qilayotgan sistemada inersiya kuchlari. Fuko mayatnigi. Ber qonuni.
III bob. Qattiq jismlarning aylanma harakati (16 soat)	
3.1.	Qattiq jismning ilgarilanma va aylanma harakati. Qo'zgalmas o'qqa ega bulgan jismning muvozanat sharti.
3.2	Jismning qo'zgalmas o'q atrofida aylanma harakat qonuni.
3.3	Impuls momenti. Og'irlik va inersiya markazlari. Qattiq jism inersiya markazining
3.4	harakat qonuni.
3.5	Shteyner teoremasi. Shteyner teoremasining tadbiqu.
3.6	Qattiq jism harakati uchun dinamikaning asosiy qonunlari. Aylanma va ilgarilanma harakat qilayotgan jismning kinetik energiyasi.
3.7	Giroskoplar. Erkin giroskop o'qining harakati. Giroskopik
3.8	kuchlar. Butun olam tortishish qonuni. Inert va gravitatsion massa. Tortishishning potensial energiyasi.

	Koinot mexnaikasining asosiy qonunlari.
IV bob. Deformatsiya (2 soat)	
4.1	Elastik deformatsiya. Guk qonuni. Yung moduli.
V bob. Suyuqlik va gazlar harakati (6 soat)	
5.1	Moddaning agregat xolatlari. Suyuqlikning statsionar oqimi. Ideal suyuqlik zarrasi uchun dinamikaning asosiy qonuni. Bernulli tenglamasi. Torrichelli formulasi.
5.2	Suyuqlik yoki gaz oqimining jismga ta'siri. Magnus effekta.
5.3	Ko'tarish kuchi.
VI bob. Tebranma harakat (8 soat)	
6.1	Garmonik tebranma harakat. Matematik mayatnik va uning kinematikasi, dinamikasi. Fizik mayatniklar. Xususiy tebranishlarda energiyaning o'zgarishi. So'nuvchan tebranma harakat. Majburiy tebranishlar. Rezonans. <u>Tebranishlarning ko'shish. Bienie.</u>
VII bob. Tulqinlar (5 soat)	
	To'lqinlar. Yassi sinusoidal to'lqin. To'lqin harakat energiyasi. To'lqin interferensiyasi. Tovush va uning tabiati. Akustika elementlari.

4-jadval

Amaliy mashg'ulotlar mavzulari (40 soat)

Mavzu Boblar bo'yicha amaliy mashg'ulotlar mavzusi va mazmuni

I bob. Kinematika. Kinematikadan masalalar yechish mazmuni (10 soat)

- 1.1 Nuqtaning ilgarilama harakati.
- 1.2 Nuqtaning aylanma harakati.
- 1.3 Harakatlarni qo'shish.
- 1.4 Erkin tushish. Osmonga tik otilgan jismning harakati.
- 1.5 Gorizonttal va gorizontga qiya otilgan jismning harakati.

II bob. Dinamikaga masalalar echish (18 soat)

- 2.1 Nyuton qonunlari. Ishkalanish kuchlari.
- 2.2 Impuls va impuls saklanish qonuni. Ish va energiya.
- 2.3 Energiyaning saklanish qonuni.
- 2.4 Butun olam tortishish qonuni.
- 2.5 Sun'iy yuldotslar harakati.

III bob. Qattiq jismlarning aylanma harakatiga masalalar echish (6 soat)

- 3.1. Kuch momenta va inersiya momenta.
- 3.2. Impuls momentining saqlanish qonuni.
- 3.3. Aylanma harakat kinetik energiyasi.

4.1 **IV bob. Elastik deformatsiyaga masalalar echish (4 soat)**

[Masalalar echish. _____

V bob. Suyuqlik va gazlar harakati (2 soat)

5.1 | Masalalar echish. _____

VI bob. Garmonik tebranma harakat va to‘lqinlarga masala echish (10

- 6.1 **soat)**
- 6.2 Garmonik tebranma harakat kinematikasi.
- 6.3 Garmonik harakat dinamikasi.
- 6.4 Tebranishlarni qo‘shish.
- 6.5 Sunuvchan tebranma harakatlar.
- 6.6 Mexanik to‘lqinlar.
Akustika elementlari.

5-jadval

«Mexanika» kursiga oid laboratoriya ishlari (80 soat)

Laboratoriya ishlari <u>raqami</u>	Boblar bo‘yicha laboratoriya ishlarining nomi va mazmuni	Laboratoriya ishlariga mos keluvchi mavzular
---------------------------------------	--	---

MUSTAQIL TA'LIM MAZMUNI

Endi yuqorida bayon qilinganlarga asoslanib, «Mexanika» kursi bo'yicha talabalarning ma'naviy yo'naltirilgan mustaqil ta'limini tashkil etishning ayrim shakllari ustida to'xtaymiz.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni ro'yobga chiqarish munosabati bilan universitet ta'lim tizimida o'qitishning tarixiylik prinsipini kuchaytirish barobarida «Mexanika» kursini talabalarga o'rgatish jarayonida ularni O'rta Osiyolik, ayniqsa Movaraunnahrlik allomalarning jahon fani taraqqiyotiga ko'shgan buyuk hissalarini bilan tanishtirib borish uchun ta'lim mazmunini didaktik qayta ishlangan tarixiy materiallar asosida matnlashtirish, undan ma'ruza, amaliy, seminar mashg'ulotlarida, individual va jamoa bo'lib bajariladigan ijodiy topshiriqlarida, ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanishning shakl, usul, vositalarini ishlab chiqish juda muhimdir.

Ma'lumki, «Mexanika» kursining namunaviy o'quv dasturiga muvofiq ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya ishlari mavzularini o'rganish ko'zda tutilgan (2-, 3-, 4-jadvallarda).

Mazkur materiallarni ta'limning tarixiylik hamda politexnik prinsiplari asosida atroflicha tahlil qilish orqali biz talabalarni buyuk ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan boy ilmiy meros bilan tanishtirish uchun juda katta imkoniyatlar borligini namoyon qilishga muvaffaq bo'ldik.

Shu munosabat bilan quyida amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari hamda fizika-texnika to'garaklarining ayrim mashg'ulotlarida talabalar bajarishi lozim bo'lgan ba'zi bir mavzular uchun saralab olingan ma'naviy materiallar mazmunini keltiramiz.

6-jadval

Ma'naviy yunaltirilgan amaliy mashg'ulotlar mavzulari

O'quv dasturi mavzulari bo'yicha	Kafedra tavsiya qilgan qo'shimcha mavzular	Tavsiya etiladigan adabiyotlar
Kinematika: Gorizontal va gorizontalga qiya otilgan jismning harakati	Ibn Sino tomonidan impetus (harakat bir jismdan boshqasiga berilishi) nazariyasining rivolanitirilishi	17

Ma'naviy yo'naltirilgan fizika-texnika to'garagida maket, model loyihalarini yaratish

O'quv dasturi mavzulari bo'yicha	Kafedra tavsiya qilgan qo'shimcha mavzular	Tavsiya etiladigan adabiyotlar
Xatoliklar nazariyasi. Analitik tarozida ishlashni o'rganish	Beruniy, Al-Xorazmiy, Chagmini, Ulug'bek, J. Koshiy, Ali Qushchi tomonidan Mexanika va astronomik kattaliklarni yuksak darajada aniqliqda o'rganish va o'lchash uchun yaratilgan asbob-uskuna (hind doirasi (kompas), kvadrat, qolip, suvdon, hajm o'lchagich (olat) avtomat sug'orgich va h.k.)larni loyihalash	16, 18
Kinematika	O'tmishda to'quvchilik, hunarmandchilik, me'morchilikda foydalanilgan richag, chig'ir, g'altak, pona va h.k. mexanik moslamalarni tayyorlang. Richagli avtomatik sug'orgichning ishlab chiqarish prinsipi bayonini yozma shaklda ifodalab bering va himoya qiling	17
Suyuqliklar va gazlar harakati	Beruniy, Al-Xorazmiy yaratgan aero-gidrostatik tarozilarni loyihalang, chizmalarini tayyorlang. Gidrostatik tortish usuli bilan kartoshka, lavlagi va h.k.lar hajmini aniqlang. va Beruniy o'lchagan moddalar solishtirma og'irliklarining aniqlik darajasini zamonaviy usulda aniqlang, kattaliklar bilan taqqoslang, buyuk vatandoshlarimizning fan fidoyisi ekanligi tug'risida hulosalaringizni yozma ravishda bayon qiling	18

Ma'naviy yo'naltirilgan ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tayyorlash

O'quv dasturi mavzulari bo'yicha	Kafedra tavsiya qilgan qo'shimcha mavzular	Tavsiya etiladigan adabiyotlar
Suyukliklar va gazlar harakati	Beruniyning tutash idishlar, vodoprovod, buloqpar, fantan, artezian quduqlar, bo'shliq (vakuum), atmosfera bosimiga doir materiallarni o'rta maktab fizika kursida aks ettirilganligini o'rganish	18, 20
Xatoliklar nazariyasi. Analitik tarozida ishlashni o'rganish	Buyuk vatandoshimiz Abu Rayhon Beruniy - jahon eksperimental fizikasi fanining asoschisi	18
Kinematika. Dinamika. Butun olam tortishish qonuni	Beruniy bilan Ibn Sinoning Mexanika bo'yicha yozishma (savol-javob)larining Mexanika fanining shakllanishiga ta'siri B. Juraevning «Ibn Sino ijodida fizika va texnika muammolari» nomli risolasiga taqriz yozing. F. Zikrillaevning «Beruniyning fizika sohasidagi ishlari» risolasiga taqriz yozing.	18 17 18

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1998.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: O'zbekiston, 2000.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarini ta'lim muassasalarida o'qitishni tashkil etish bo'yicha fakultativ o'quv kursi dasturi. – T.: Istiqlol, 2010.
5. Материалы Республиканской научно – методической конференции по практическим и организационным проблемам самостоятельной работы в школе заочного и вечернего образования. – Т.: Фан, 1971.
6. Krasnobaev I.M. Mustaqil kitob o'qish metodikasi. – T.: Qizil O'zbekiston, 1956.
7. Ravshanova M. Bolalar tarbiyasida ma'naviy merosimizning ahamiyati // "Yoshlar ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning vazifalari" mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – Jizzax, JDPI, 2006.
8. Saidxo'jayeva M. Kichik mutaxassislarni tayyorlashda mustaqil ishlarni samarasini tashkil etish. Konferensiya materiallari – T., 2015. – b. 125-126.
9. Шодиев Н.,Ишина Л. К вопросу развития навыков самостоятельной работы студентов в вузах // Материалы научной конференции профессорско–преподавательского состава СаМГПИ (серия естественных наук). – Самарқанд, 1970.
- 10.Шодиев Н., Ишина Л. О подготовке школьников к самостоятельной работе в процессе изучения физики // Материалы Республиканской научно-методической конференции по дидактическим и организационным проблемам самостоятельной работы в школе заочного и вечернего образования. – Т.: Фан, 1971.
- 11.Шодиев Н. Из опыта привития навыков самостоятельной работы по физике студентов младших курсов пединститов // Тезисы докладов 1 Зонального семинара преподавателей вузов Средней Азии и Казахстана по проблемам научной организации учебного процесса по курсу физики. - Ашхабад, 1971.
- 12.Шодиев Н. Некоторые пути планирования и повышения эффективности преподавания курса общей физики в педвузах // «Программа и тезисы докладов» зонального семинар-совещания по

- методике преподавания физики в вузах Средней Азии и Казахстана. - Алма-Ата, 1974.
13. Shodiev N., Jo'rayev O'. "Mexanika" fanidan talabalar mustaqil ishni tashkil etish, nazorat qilish va baholash bo'yicha uslubiy tavsiyalar. – Samarqand: SamDU, 2007.
 14. Shodiev N. O'tanov O'. Auditoriyadan tashqari mustaqil ta'lim jarayonida talabalarni ma'naviy shakillantirish // Uzluksiz ta'lim sifat va samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy muammolari Respublika ilmiy konferensiyasi materiallari. – Samarqand: SamDU, 2011.
 15. Юнусова Х.М., Алимова С.И. Самостоятельное образование студентов как важнейший фактор воспитания творчески мыслящих специалистов // Kasbiy ta'limni takomillashtirishning nazariyasi va amaliyoti. – Qarshi: QarDU, 2007.
 16. Qultoev J. Talaba – yoshlarning vaqtdan samarali foydalanishi // Kasbiy ta'limni takomillashtirishning nazariyasi va amaliyoti. - Qarshi: QarDU, 2007.

MUNDARIJA:

KIRISH.....	1
MUSTAQIL TA'LIM OLISH TEXNOLOGIYASI.....	2
<i>I.1 Ma'ruzani tinglash.....</i>	<i>2</i>
<i>I.2 Kitob mutolaasi va kitob bilan ishlash metodlari.....</i>	<i>5</i>
<i>I.3 Mutolaa qilingan materialni matinlashtirish.....</i>	<i>7</i>
<i>Seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish.....</i>	
AMALIY VA LABORATORIYA MASHG'ULOTLARI..	13
<i>II.1 Amaliy mashg'ulotlar.....</i>	<i>13</i>
<i>II.2 Laboratoriya mashg'ulotlari.....</i>	<i>15</i>
<i>II.3 Laboratoriya ishlarini bajarish va hisobot tayyorlash..</i>	<i>16</i>
<i>II.4 Yozma kurs va malakaviy bitiruv ishlari.....</i>	<i>17</i>
<i>II.5 Yozma kurs ishlari, yozma malakaviy bitiruv ishlarini tuzish, joriy, oraliq va yakuniy nazorat ishlariga tayyorgarlik ko'rish.</i>	
<i>II.6 Talaba aqliy mehnatni tashkil etish.....</i>	<i>32</i>
<i>II.7 Ishni rejalashtirish.....</i>	<i>34</i>
<i>Mexanika fanidan ma'naviy yo'naltirilgan mustaqil ishini tashkil etish bo'yicha ayrim namunalar.....</i>	
XULOSA.....	35
ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	39

Uslubiy qoʻllanma material matnini nashrga SamDU magistri I.Madatov tayyorladi.